

GULTAN DOYIO'G'LI

LAYLAK QORDA QOLDI



KBK 84 (5Turk) 6
UDK: 821.512.133-3
D-79

DOYIO'G'LI, GULTAN.

Laylak qorda qoldi: Hikoyalar/Gultan Doyio'g'li;
turkchadan Miraziz A'zam tar.; Iyijil Fusun rasmlari.
- Toshkent: «EXTREMUM-PRESS» nashriyoti, 2013. -84 b.

KBK 84 (5Turk) 6
UDK: 821.512.133-3

Taqrizchi:
TURSUNBOY ADASHBOYEV -
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Bolalar adabiyoti kengashining
adabiy maslahatchisi

Rasmlarni FUSUN IYIJIL ishlagan

Kitob Bolalar fondining «Turk bolalar va o'smirlar
adabiyotining dunyo tillariga tarjima qilinishi» loyihasi
tavsiyasi va Turkiya Madaniyat va turizm vazirligi
TEDA loyihasi yordamida nashr etildi.

Turk bolalar va yoshlar adabiyotining mohir adibasi
Gultan Doyio'g'lining hikoyalari Respublikamiz vaqtli
matbuotida - «Saodat», «Gulxan» jurnallarida ham chop
etilgan bo'lib, ularda, asosan, tabiat va inson
o'rtasidagi munosabatlar, mazkur rishtaning nozik
jihatlari o'z ifodasini topgan. Muallif ularning
aksariyatida tabiat go'zalliklarini bolalar ko'zi bilan
ko'radi, tabiat qoniniyatlarini bolalar yuragi bilan
his qilib, ular ongu tafakkuri bilan tadqiq etishga
urinadi.

Mazkur hikoyalar ulg'ayib kelayotgan yosh avlod
qalbida tabiatga mehr uyg'otadi, atrof-muhitga e'tiborli
bo'lishga, Ona-Tabiatni asrab-avaylashga o'rgatadi, deb
ishonamiz.

ISBN-978-9943-4101-8-3

© «EXTREMUM-PRESS» nashriyoti, 2013 y.
© GULTAN DOYIO'G'LI, 2013 y.

1935-yilda Kutahya viloyatining Emet shaharchasida dunyoga kelgan Gultan Doyio'g'li Istanbulda qizlar litseyini bitirgach, bir muddat o'qishini Istanbul universitetining Huquq fakultetida davom ettirdi. Ammo keyin, turmush taqozosi bilan sirtqi o'qishga imtihon topshirib, boshlang'ich maktab o'qituvchisi bo'ldi. O'n besh yil maktablarda muallima bo'lib ishlaganidan so'ng, 1977-yilda iste'foga chiqdi.

O'zi hali boshlang'ich maktabning uchinchi sinfida o'qib yurganidayoq ijodiy mashqlarni boshlagandi, 1966-yilga kelib Gultan Doyio'g'lining "Bohchivonning o'g'li" nomli birinchi kitobi nashr etildi. "Jumhuriyat" gazetasining bolalar hikoyasi bo'yicha Yunus Nodi nomidagi mukofotini oldi. Undan keyin yana bir qator tashkilot va muassasalarning mukofotlariga ham sazovor bo'ldi. Asarlarining ba'zilari ingliz, nemis va rus tillariga o'girildi. Nemischaga tarjima qilingan "Dunyo bolalarniki bo'lsa" nomli romani 1984-yilda Germaniya Noshirlar Birligi tomonidan "Yoshlarga kelajakdan umid beruvchi uch yuz kitob" tanlovi ro'yxatiga kiritildi. Tanlov ro'yxatida Jyul Vern, Red'yard Kipling, Daniel Defo kabi bolalar adabiyoti klassik vakillarining ijod namunalari ham borligi



inobatga olinsa, Gultan Doyio'g'li qanday e'tirofga sazovor bo'lganini anglash mumkin. Bu uch yuz kitobdan iborat seriyadan maxsus katalog tashkil etildi va kitoblar Germaniya hududida ochilgan kitob ko'rgazmalari orqali yil davomida xalqqa tanitildi.

Gultan Doyio'g'li 2000-yilda Andersen tanlov-konkursida Turkiya vakili sifatida qatnashib, turk bolalar adabiyotining obro'sini ko'tarishga muvaffaq bo'ldi.

1971-yilda nashr etilgan ilk romani "Fodish"ning 2001-yilda o'ttiz yilligi nishonlandi. Eski shahar Usmon G'ozi universiteti, Anqara universiteti va Marmara universitetlarida yozuvchining bu kitobi xususida tadqiqot va ilmiy ishlar, bayonot va turli maqolalar e'lon qilindi, ularning bari bir kitob holda to'planib, nashr etildi.

Yozuvchining har bir sahifasi rasm bilan bezatilgan yetti yoshli bolalarga mo'ljallangan o'n ta kitobi, to'qqiz yoshli bolalarga mo'ljallangan yigirmata kitobi chiqarilgan.

Gultan Doyio'g'li fransuz tilidan o'n oltita kitobni turk hayotiga moslashtirib, erkin tarjima qilgan, tarjimalarini "Oyshagul" nomli to'plamga jamlab nashr ettirgan.

Yoshlar orasida Gultan Doyio'g'lining "Ko'k gilos", "Ko'k gilos-2", "Sakkizinchi rang", "Qiyomat gullari", "G'ira-shira tun qushlari", "Orqada qolganlar", "Orqaga qaytganlar" kabi kitoblari katta qiziqish bilan sevib o'qilmoqda.

"To'rt aka-uka edilar", "Yurtimni sog'indim", "So'naning chumchuqlari", "Men ulg'ayguncha", "Dunyo bolalarniki bo'lsa", "Nurlanish chog'ining bolalari", "Barbod tog'aning siri", "Midos

burgutining ko'zlari", "O'limsiz chol", "Aqlli burgalar", "Dunaydan uchgan qush", "Ko'k yuzidagi qora bulutlar" va "Ganga" nomli romanlari ham o'quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilingan, hozir ham yoqtirib va so'ralib o'qilayotgan kitoblar sirasidandir.

Yozuvchi 1970-yildan beri chet ellarga ko'p sayohat qilgan. O'z sayohatlari davomida bolalar va yoshlar hayotiga oid ajoyib fotosuratlar ishlagan va mazkur fotosuratlar bilan bezatilgan o'nta sayohatnoma kitobini ham nashr ettirgan. Bu kitoblarning ba'zilari maktablarda yurt o'rganish uchun manba sifatida foydalanilmoqda. 2003-yilda Gultan Doyio'g'li ijodiy faoliyatining 40 yilligi munosabati bilan chet ellarda chiqqan "sayohatnoma"larining qalam haqlarini YUNISEFga armug'on etdi.

1993-yili Gultan Doyio'g'li tug'ilgan joyi- Emet qasabasidagi o'z oilasiga tegishli ikki qavatli bir binoni Bolalar kutubxonasi sifatida Madaniyat Ishlari Vazirligiga taqdim etadi. Bu kutubxona hozir ham Gultan-Javdat Doyio'g'li nomli Bolalar va Xalq Kutubxonasi sifatida ishlab turibdi. Emet qasabasining bir shohko'chasi va bolalar bog'iga (parkiga) Gultan Doyio'g'li nomi berilgan.

Gultan Doyio'g'li roman, hikoya, radio va tele-tomosha asarlari yozish bilan birga yana boshlang'ich ta'lim ehtiyojlarini, shuningdek chet ellardagi ishchi bolalarining ehtiyojlarini inobatga olib, ko'p tadqiqot ishlari ham yozgan. Bu maqolalar 1965-1987-yillar orasida "Jumhuriyat" va "Milliyat" gazetalarida e'lon qilingan. 2005-yilda chop etilgan "Yadaning yashirin kuchi (potensial)" asari uning yetmishinchi kitobidir.



XAYRI GILOS KO'CHATINI SEVIB QOLGANDI

O'simliklar bilan insonlar orasida sevgi rishtasi bog'lanishi mumkinmi? Siz bunday narsaga ishonasizmi, bilmayman. To'g'risi, meni ham ishongim kelmasdi. Faqat bundan bir necha yil muqaddam qiziqarli bir voqeaga guvoh bo'ldim. Endi, bunga yurakdan ishonaman.

Qo'shnimning oriqqina bir o'g'li bor edi. Oila uning ko'zlariga qarab turar, bir aytganini ikki qilmasdi. Ammo yigitcha qandaydir juda sekin ulg'ayar, hech yetuklik pallasiga kira qolmasdi. Oxiri o'pkasi kasalligi ma'lum bo'ldi. Hammamiz juda xafa bo'ldik. Ayniqsa onasi, otasi chidab bo'lmas qayg'u-hasratlarga cho'mishdi. Bolaning oti Xayri edi. Kasallik tashxisi qo'yilganda, Xayrijonning ham boshi egildi. O'ynash taqiqlangan, chopish taqiqlangan, terlash taqiqlangan, charchash taqiqlangan edi... Holbuki, oldinlari maktabdan qaytishda uylari joylashgan binoning orqasidagi daraxtzorda bolalar bilan o'ynardi. Xastaligini bilgach, tamoman uyga qamalib oldi. Zotan, sog' bolalar



bilan birga o'ynamasligi tavsiya etilgandi. Kasali ularga ham yuqishi mumkin ekan.

Xayrilar binoning birinchi qavati ostida turishardi. Binoning qarshisi katta daraxtzor edi. Har yili maydonga gulmi, ko'chatmi o'tqazishardi otanasi. Tez orada u yerlar gurkirab ketardi. Xayrining otasi o'g'lining uyga qamalib o'tirishidan qattiq ezilardi. O'g'li hayotdan xafa edi. Doktor unga yashash quvonchini beradigan bir narsalar bilan shug'ullanishni tavsiya etardi. Otasi o'ylab-o'ylab har narsalar olib kelardi. Bir kun Xayri uchun yaxshi navli bir gilos ko'chatni olib keldi. Xayri gilosni juda yaxshi ko'rardi. Balki ko'chatning o'sishi, gullab mevaga kirishi uni xursand qilar, deya nekbin xayollarga borardi.

Chindan ham o'ylaganiday bo'ldi. Xayri ko'chatni ko'rganda jonlandi.

- Bu mening daraxtim bo'lsin. O'z qo'lim bilan o'tqazay. Parvarishini ham o'zim qilaman, - deya oyoqqa turdi.

Ona-ota rosa sevindilar. Ota birgina chuqur kavlashda yordam berdi. Xayri ko'chatni chuqurga hafsala bilan joylashtirdi. Atrofini tuproq bilan to'ldirarkan, u bilan gaplasha boshladi:

- Ona tuproqni mahkam tut. U seni



xohlaganingday ta'minlaydi. Nayson¹ quyoshi porlaganda, butun vujuding iliqlikka to'ladi. Shoxlaringga chechaklar teriladi. Keyin ushoqday-ushoqday gilolar paydo bo'ladi ustingda. Ular etlanib, qizaradi. Men bo'lsam maza gilib yeyman...

Ota-onasi buni kuzatganda bir-birlariga kulimsirardilar. Xayri ko'chatning tubini tuproq bilan to'ldirib, jon suvi berdi. So'ngra ona-otasiga o'girildi:

- Bu yil meva berarmikin?

Otasi:

- Juda bu yil bermasa kerak. Ammo ko'chat sotuvchilar, bu juda yaxshi navli gilolar, deyishdi. Balki shu bahordayoq gullab, nishona berib golar.

Xayri xastaligi sababli maktabga bormasdi. Yotgan joyida kitob o'qib, musiqa tinglab ovunardi. Havo yaxshi bo'lgan kunlarda boqqa chiqar, ko'chatning tevaragida aylanib u bilan gaplashardi:

- Oh, mitti ko'chatginam, shu yil bahorda gullasang, shunday sevinamanki! Men - bir kasal bolaman. Ehtimolki, ertaklarda bo'lganiday mevalaringni yeganimda tuzalib ketarman.

¹Nayson - aprel. Tarjimon izohi



Yana bir kun:

- Sovuq yedingmi? Yo siqilib ketdingmi? Yoningda boshqa ko'chatlar bo'lishini istaysan, shunday emasmi? - deya savollar yomg'iriga tutardi ko'chatini.

Nayson kelib havolar iliy boshlaganda, uning yonidan ayrilmaydigan bo'lib qoldi. Ota-onasi Xayrining bog'da sovuq qotib, shamollab qolishidan qo'rqardilar. Ammo uni ko'chatining yonidan ayirish qiyin edi. Kursisini ko'chatning yoniga o'rnashtirib olar, kitobini o'sha yerda o'qir, musiqasini o'sha yerda tinglardi. Yellar esib sal silkinib qolsa, shu ondayoq ko'chat bilan gaplasha boshlardi.

Doktor uni juda tez shifo topyapti, derdi. Ishtahasi ham borgan sari ochilib boryapti.

Bir kuni ertalab onasi ul-bul xarid qilib qaytganida, Xayrining qiyqirayotganini eshitib qaltirab ketdi. To'g'ri boqqa qarab yugurdi. Xayri ko'chatning yonida edi. Sevinchdan uchib ketguday edi. Ko'chatning bir necha novdasida kurtaklar qabarib chiqqandi. Xayri bularni onasiga ko'rsatarkan, ochiqdan-ochiq yig'lay boshladi. Bu qayg'u emas, sevinch ko'z yoshlari edi. Ayni chog'da kichkina gilosning shoxlariga o'pichlar qo'ndirardi. Shirin so'zlar bilan rahmatlar aytardi.



Xayrining holi onasiga ham yuqdi. U ham o'pdi ko'chatni. Chiroyli-chiroyli so'zlar bilan xursandligini bildirdi. O'g'lining shu qadar baxtli ekanligi uning qayg'ularini aritdi.

Shunday qilib, gilos ko'chati yigirma dona chechak ochdi. Xayri har tong uyg'onar-uyg'onmas to'g'ri ko'chatining yoniga chiqib ketardi. Chechaklarni sanar, ko'chatning tagini yumshatar, tanini o'pib, unga tashakkurlar bilan maqtov yog'dirardi.

Uyning yuqori qavatida turuvchilar ilgari gilamlarini daraxtzorga qarata qoqar, ayvonlarini kir yuvish kukuni qo'shilgan suvlar bilan yuvar, gullarga, chechaklarga hech ahamiyat bermasdilar. Endi esa chang artuvchi lattani ham pastga silkitishdan o'zlarini tiyardilar. Xayrining kasalligi va ko'chatga bo'lgan mehr-muhabbati hammaga birdek qattiq ta'sir ko'rsatgandi. Har kuni unga ko'chati, kurtaklari, chechaklari bilan aloqador savollar berishardi.

Xayri bu iliq munosabatlardan juda xushnud edi. Ko'chati bilan bog'liq ma'lumotlarni ularga aytarkan, shunday bir mag'rurlanib, shunday gerdaya boshlardiki!..

Uyda endi mutlaqo kasallik so'zi

ishlatilmasdi. Eng ko'p gaplashiladigan mavzu gilos ko'chati edi. Xayri o'n besh kunda bir marta ko'chatning bo'yini, qanchalik yo'g'onlashganini o'lchar edi. Bu mavzuga aloqador jarayonlar ham darhol og'izdan-og'izga yoyilardi.

Yosh daraxtning ustiga bir kun kichkina bir chumchuq qo'ndi. Xayrining o'takasi yorildi. Darhol onasiga yugurdi, qushning ko'chatga va chechaklarga zarar yetkazishidan qo'rqqandi. Ammo onasi buning tabiiy ekanini aytdi.

- Qushlar albatta daraxtlarga qo'nadi. Ko'chating bundan baxtli bo'lgani shubhasiz, - dedi.

Keyin o'sha chumchuq tez-tez kela boshladi. Ko'p o'tmay Xayriga ham o'rgandi. Shunday qilib, Xayri, chumchuq va ko'chat o'rtasida ajralmas bir do'stlik vujudga keldi.

Xayrining ko'z o'ngida chechaklar mevaga aylandilar. Kattalashib qizardilar. Yigirma chechakdan faqat o'n ikkitasida meva yetildi. Iyun oyining oxirlarida ota-onasi Xayriga mevalarni yig'ib olish kerakligini o'rgatishdi.

Oldiniga Xayrining ularni uzishga ko'ngli bo'lmadi. Ammo otasi:

- Bu mevalarni yig'ib olsang, kelasi





yil ko'proq meva beradi. Giloslarning shoxda qolishi ko'chat uchun yaxshi emas,- dedi.

Xayri xursand bo'lib, mevalarni terib oldi. Eng oldin ikki juftini ikki qulog'iga taqib zavqlandi. Keyin o'tirib o'zicha, munchayam chiroyli, dedi.

Aslida Xayrining o'zi benihoya sog'lom ko'rinardi. Oradan o'tgan shu ikki-uch oy ichida uch kilo semirgandi. Doktor uning tez tuzala boshlaganini aytar, oilaning sevinchdan og'zi qulog'ida edi. O'qituvchisi uni tez-tez ko'rishga kelardi. Kuzda yangidan o'qishga borishi kerakligini aytardi. Shu vaj bilan unga yordamchi kitoblar keltirar, orada bir matematika darsi berib qo'yardi.

Ammo, afsuski, umidlar ushalmadi. Kuz boshlarida birdan Xayrining sog'ligi yomonlashdi. Gilos ko'chatining yaproqlari sarg'ayarkan, Xayri ham sarg'ayib so'la boshladi. Ona-otasi ham, doktor ham dahshatga tushib, bu holning sababini qidirardilar.

Xayri ko'chati bilan do'stligini davom ettirardi.

Unga kuz va qish nimaligidan saboq berardi. Yaproqlarining to'kilishiga xafa bo'lmaslik kerakligini uqdirdi. Ildizlari va tanasining bir qismini ona tuproq bilan ko'mib qo'yajagini aytar,

qish bo'yi, o'lmasdan oyoqqa turishim uchun yordam ber, deb so'rab yolvorardi.

Havolar yaxshigina sovib ketganidan, Xayri ortiq daraxtzorga chiqolmasdi. Ko'chatini deraza oynasi ortidan kuzatish bilan kifoyalannardi. Eng katta qo'rquvi, uning nozikkina tanasi qora qishga, izg'irinlarga chidamasligi mumkinligida edi. Ikki gapning birida:

- Yo sovuq urisa, yo qurib qolsa, yo uni shamollar sindirib ketsa!-deb tahlikali so'zlar chiqaverardi tiliga.

Ota-onasi nima qilishni, nima deyishni bilmay, hayron edilar. Xayri bilan birga ularning ham sevinchlari, jo'shqinliklari so'ngan, ichlarini qora shubha-gumonlar kemirardi. O'g'illarning kasali kundan-kunga og'irlashib borayotgani ularni qiynar edi. Endi chumchuq ham kelmay qo'ygandi. Chunki pag'a-pag'a qor yog'ardi.

O'sha kunlarda Xayri yotoqdan chiqmay qo'ygandi. Ishtahasi yo'q, yozda orttirgan etlari allaqachon ketib bo'lgandi. Endigi kunlarda yanada zaiflashmoqda edi. Doktor bu ahvoldan juda bezovta edi. Bolaning sanatoriya yotqizilishini tavsiya qildi. Xayri uydin ketarkan, ko'chati bilan vidolashmoqchi bo'ldi. Onasi uni ko'rpaga o'rab-chirmab boqqa opchiqdi.



Xayri ko'chatini o'pdi. Uni endi ko'rolmasligini aytdi. Qishga bardosh berishi kerakligi to'g'risida o'git berdi. Bu asnoda ho'ngrab-ho'ngrab yig'ladi. Daraxtning tanasini o'parkan, bir necha tomchi ko'z yoshi ko'chatning tubiga tushdi. Onasi o'g'lini u yerdan zo'rg'a uzoqlashtirdi.

Xayri kasalxonada yaxshi boquvga olindi. O'zini anchagina yig'ib oldi. Ammo oradan oylar o'tishiga qaramay, negadir sog'ligini tiklayolmadi. Bahor kelganda kasalxonadan chiqqisi va ko'chatini ko'rgisi keldi. Ammo doktor ruxsat bermadi.

Shundog'am ko'ngli buzildiki!.. Kun bo'yi ming kishi gapga solmoqchi bo'lsa ham og'iz ochmadi. Ona-otasi kasalxonaga kelganda, faqat ko'chatining hol-ahvolini so'rardi. Onasi unga yolg'on so'zlashga majbur bo'ldi. Cunki bahorda gilos ko'chati gullamagan edi. Shunchaki zo'rg'a-zo'rg'a yashardi. Ammo meva bermadi.

Onasi o'g'liga ko'chatni maqtayverib, maqtovini bitirolmasdi. Uning gapiga qaraganda, ko'chat bu yil o'ttiz-qirqtacha chechak ochgandi. Mevalari tez kattayardi. Giloslar sal-sal qizaryapti, deya o'g'lining ko'nglini ochmoqchi bo'lardi. Eshitganlar

ko'chatning bu ta'rifidan hayratga tushardilar.

Inson bilan o'simlik orasida sevgi rishtasi bo'lishiga ishonganlar, ko'chat Xayrining holati sababli meva bermasligini so'ylardilar. Ishonmaganlar esa so'ylashga so'z topisholmasdi.

Iyun oyining oxirlarida onasi sabzavot va mevalar do'konidan gilos olib kasalxonaga keltirdi. Xayri bir donasini yedi.

- E.. eh...- dedi. - Ko'chatimga men yo'g'imda yaxshi qaramabsizlar. Mevalari o'tgan yilgiday shirin emas.

Onasi aybdorlarcha boshini egdi.

- Sen sog'ayib kel va o'zing qara ko'chatingga,-deya o'g'lining boshini siladi.

Xayri kuzda kasalxonadan chiqdi. Doktor birinchi qavat ostidagi yerto'layda turishlari Xayri uchun xatarli ekanini aytdi. Ammo Xayrilar nisbatan kambag'al oila edilar. Yuqoriroq, yorug'roq, havoliroq qavatga chiqishlari imkonsiz edi. Oxiri Xayri qishni Mersinda, buvisining yonida o'tkazishiga qaror qildilar. Xayri oilasining o'z uyidan Mersinga ko'chish taklifini xursandlik bilan qabul qildi. Birinchi qavat ostidagi uydan, ochig'ini

aytaveraylik, yerto'ladan ko'chib ketsalar, ko'chatidan tamomila ayrilishga majbur bo'lishini ham bilardi.

Xayri qish bo'yi Mersinda qoldi. Buvisi unga shunday yaxshi qaradiki, Xayri bahor kelishi bilan uyiga qaytganida, qo'shnilar uni tanimay qoldilar. Chunki u chinakamiga semirgan, bo'yi o'sgan, ulg'aygan edi.

Uyiga qadam bosar-bosmas, to'ppa-to'g'ri borib, ko'chatini quchoqladi. Uni o'pdi, siladi. Shirin-shirin so'zlar bilan qanday sog'inganlarini aytdi.

Ota-onasi va qo'shnilar ko'chatning bu yil meva berish-bermasligi to'g'risida maroq bilan so'zlardilar. Ko'p o'tmasdan, ko'chatning novdalaridan kurtaklar bo'rtib chiqdi. Tepadan to pastgacha, boshdan-oyoq chechaklarga burkaldi. O'sha yili shu qadar ko'p gilos berdiki, ularning ko'p qavatli uyida yashovchi har bir kishi uning mevasidan totish imkonini topdi.

Xayrining ko'chati bundan keyingi yillarda ham ko'p-ko'p meva berishda davom etdi. Borgan sari bo'yi o'sib katta daraxt bo'ldi. Xayri ham ulg'aydi. Universitetga kirdi. Ammo gilos daraxti bilan o'rtalaridagi do'stlik tugamadi. U hamon yoz oylarining ko'p qismini



gilos daraxtining atrofida va ustida o'tkazardi. Daraxtning shoxlari shunday shoxlab, shunday chiroyli shaklga kirdiki, go'yo bu yerda o'ziga xos istirohat joyi vujudga kelganga o'xshardi. Xayri kitoblarini olib daraxtga chiqardi. Oromkursiga o'xshash bir ayri shoxini tanlab joylashardi. Orada bir onasi:

- O'g'lim, sening daraxt shoxlarida o'tiradigan vaqtlaring o'tdi endi. O'sib chiqqan soqol-mo'ylovingdan uyal, - deya hazillashardi. Xayri bunga javoban:

- Bu yer ona quchog'iga o'xshaydi menga. Shunday orombaxsh va bexatarki!.. Bu yerda kuchim ortib, g'ayratimga g'ayrat qo'shiladi. Daraxtimni shunday sevamanki!.. Uning ham meni sevishiga yurakdan ishonaman, - degan so'zlar bilan daraxt bilan o'rtalarida sevgi rishtasi borligini ifodalab berardi.

Bunday bir rishtaning borligiga ishongan faqatgina Xayri emasdi. Endi hammamiz, barcha qo'shnilar aynan shunday fikrga ega edik...



Hojarning oyisi o'sha kuni kir yuvmoqchi edi. Choyshablar, ko'rpa jildlari, dasturxonlarni va uydagilarning kir kiyimlarini taxlab-taxlab dahlizning o'rtasiga yig'di. Hojar o'n yoshda edi, ammo kuchli va ishchan qiz edi, har ishda onasiga jon-dili bilan yordam qilardi.

Onasi:

- Yukimiz og'ir. Suv bo'yiga yetguncha, shuncha kirni yuvguncha, rosa bo'larimiz bo'ladi, - deya "uh" tortdi.

Hojar:

- Qayg'urmang, oyijon. Men sizga yordam beraman. Oldin og'ir kirlarning bir qismini eltamiz, keyin boshqalarini oboramiz, - dedi.

- Unday bo'lsa, kel, darrov ishga kirishaylik. Men kirqozon bilan mashg'ul bo'lay, sen o'tin maydala. Suv bo'yiga borib temir o'choqni o'rnatamizda, ostiga o't yoqamiz. Qozonni to'ldiramiz. Suv isiy boshlaganda uyga qaytib, kirlarni tashiyimiz.

Quyosh endi chiqayotgan edi. Ona bilan qiz temir o'choq, kirqozon va o'tinlarni birma-bir tashib daryo yoqasiga olib bordilar. Har gal ular suv bo'yiga kelganlarida og'ir-og'ir harsillashardi.



Ona darhol o'choqni yoqdi. Ustiga qozonni qo'yib, suv bilan to'ldirdi. Shu pallada boshqa xotinlar ham kir yuvishga keldilar.

Hojarning oyisi xotinlarga:

- Bizning o'choqqa ko'z-quloq bo'lib turing, olovi o'chib qolmasin,- dedi. Hojar bilan birga kirlarni ikki bo'xcha qilib yuqori qavatdan hovliga tushirdilar. Kir savatining ichiga kir yuvish kukuni, taxta savag'ich, suv cho'michini va bir bo'lak sovunni qo'ydilar. Kichik bo'xcha bilan savatni Hojar ko'tardi. Katta bo'xchani oyisi orqaladi. Uydan chiqib yo'lga tushdilar.

Suv bo'yiga borganlarida qozondagi suv biqir-biqir qaynagan edi. Ona hafsala bilan yenglarini shimardi. Sochlarini qora xol-xol gulli sariq ro'moli bilan bir chiroyli o'rab turmakladi. Fartugini taqib kirlarni yuva boshladi. Oldin oqlarini ayirdi. Har birini taglari teshikli kir toshlari ustiga bitta-bittadan yoydi, ustiga kir yuvish kukunlaridan sepdi. Iliq suv bilan ho'lladi.

Shundan so'ng ham kirlarni takror-takror qo'lga olib, issiq suv bilan sovunlay boshladi. Sovunlaganlarini qo'lga olib, siqib-g'ijimlab ishqalar, so'ngra qaynatish uchun qozonga



chiy, chiy" degan ovozlari chiqarib, atrofidan yordam istardi. Birpasdan keyin qarshisida bir qancha uy sichqonlari paydo bo'lishdi. Dala sichqoni ularni hech tanimayotgan edi. Ovozlarini eshitganda qo'rqib titray boshladi:

- Kimsizlar? Menga nima qilmoqchisizlar?

Uy sichqonlari unga javoban:

- Qo'rqma,- dedilar. - Biz uy sichqonimiz. Shu yerda yashaymiz. Sizlarga xesh-aqrabo hisoblanamiz. Ovozingni eshitib yordamga keldik...

Dala sichqoni sevinch bilan ularning oralariga suqildi. Boshidan o'tganlarni bir-bir aytib bergandan so'ng:

- Endi uyamga qaytgim kelyapti,- deya afsuslandi.

Uy sichqonlari:

- Uyang juda uzoq-uzoqlarda qoldi. Bu yerda bizlar bilan birga yashasang bo'lmaydimi? - dedilar.

Dala sichqoni:

- Qornim och, bu yerda hech narsaga ko'nikib bo'lmayapti, - dedi.

Sichqonlar:

- Yur biz bilan, senga uyamizni ko'rsatamiz,- deyishdi. Ham qorningni to'yg'azasan, ham uy sichqoni bo'lishning yo'llarini o'rgatamiz



senga...

Dala sichqoni uy sichqonlarining orqasidan qolmay dehqonning uyiga ketdi. Sichqonlarning uyalari, oshxonalari to'shama taxtalarning ostida edi. Boshqa sichqonlar ham dala sichqonini mehr-hurmat bilan qarshiladilar. Uni sujuk¹, peynir², non burdalari bilan siyladilar. Bu yeguliklar dala sichqoniga juda xush yoqdi.

Uy sichqonlariga o'girilib:

- Bu yerda sizlar bilan yashashga ahd qildim,- dedi.

Katta yoshli bir uy sichqoni:

- U holda senga yashash yo'llarini aytib qo'yay: Birinchi dushmanimiz mushukdir. Undan o'zingni ehtiyot qil. Shafqatsiz bir maxluqdir u. Qarshisiga chiqsang, bir zumda seni yutib yuboradi. Odamlar ham bizga do'st hisoblanmaydi. Negadir yomon ko'rishadi bizni. Javonlaridan olganimiz bir qancha yegulik, burda non, qolgan-qutgan narsalarini bizga ko'p ko'radilar. Jonimizni olish uchun burchak-burchaklarga, yo'llarimizga qopqon qo'yadilar, bu ham yetmaganday, zaharli dori sepib qo'yadilar. Ammo

¹ Sujuk -kolbasa. Tarjimon izohi.

² Peynir -brinza. Tarjimon izohi.



uyda yashashning yaxshi tomonlari ham bor... Bu yerda yeguliklarni osongina topa olasan. Uzundan-uzoq ov ovlab, yugurib yurishning keragi yo`q. Kechalari qo`l-oyoqlar tinishi bilan javonga chiqib, qorningni rosa to`yg`azishing mumkin. So`ngra uyangga qaytasan, bir chekkada pishillab uxlayverasan. Uyda yashash juda maza, qolaversa juda osondir. Tezda o`rganib ketasan,-dedi.

Dala sichqoni o`sha kuni darrov .javonga chiqdi. Yeguliklarning joylarini bilib oldi. Sevingancha, yeguliklardan nari-beri totinib, qornini rosa to`yg`azdi. Shuncha yesa ham yana yegisi kelaverardi. Oldidan chiqqan har narsadan tatib ko`rardi. Keyin esa javcndan qaznoqqa o`tdi. Un qoplarini tishlab tortdi. Maydalangan bug`doylardan yedi... Tarxona, ya`ni un bilan qatiqdan dumaloqlab quritilgan qurutlardan yedi... Tarxona va marjumak qoplarini teshdi.

Katta-katta qovoqlarni kemirdi... Uning xatti-harakatlarini kuzatayotgan bola sichqonlar ham u bilan birga uyni xonavayron qilishga kirishdilar...

Bir kun uy sichqonlari dala sichqonini o`rtaga clib:

- Bu mechkaylikni tashla. Bola-



larimizga ham yomon ta'sir ko'rsatyapsan. Dehqonni achchiqlantirib, boshimizga bir balo orttirasan. Seni oramizga olganimizga pushaymon bo'lyapmiz, - dedilar.

Dala sichqoni esa ularga zahrini sochdi:

- Men dala sichqoniman. Sizlarga o'xshab bir tishlam non uvog'i bilan gornimni to'yg'azib burchakda yotolmayman. O'zim shunaqa g'ayratliman, u yerni, bu yerni kemirgim va tinimsiz bir narsalar yegim kelaveradi, - dedi.

Uy sichqonlari:

- Afsus, - dedilar. - Bizning qoidalarimizni buzib, hammamizni notinch qilyapsan.

Dala sichqoni esa:

- Namuncha qo'rqqoq va ipakoyim bo'lmasanglar, - dedi. - Sizlar bilan xesh-aqrabo bo'lganimdan uyalyapman, - deya uyadan chiqib, qaznoqqa ketdi.

Uyining sichqonlar tarafidan ilmatshik qilinganini ko'rgan dehqon juda g'azablandi. Dehqon bu favqulodda holatning sababini aniqlayolmay garang edi. Nihoyat, burchak-burchaklarga, sichqon yurishi mumkin bo'lgan yo'llarga zaharli dorilar sepib, qopqonlar qo'yib himoyalanihga o'tdi. Bular bilan ham kifoyalanmay, yana uyga mushuk ham oldi.



QORA XOLLI QO'ZI

Amina buvining sovlig'i o'sha yili ilk bora qo'zilagandi. Qora xolli mitti qo'zi juda sho'x, asov edi. U tug'ilgan paytda havo o'ta sovuq edi. Buvi uni haftalarcha o'z xonasida so'baning¹ orqasida boqdi. Kampir kimsasiz bir xotin edi. Qoraxolni juda yaxshi ko'rar, u bilan gaplashib, dardlashardi. Shu tarzda bahor o'tdi, yoz keldi. Havolar isib ketdi. Qora xolli qo'zi ulg'aydi, o'sdi...

Amina buvi Qoraxol bilan uning onasini, suruvga qo'shmas, o'zi boqardi. Ertalabdan kechgacha ularni orqasidan ergashtirib qirlarda, adirlarda aylantirib yurardi. Bir kun yana qishloqqa yaqin yonbag'irlarda qo'y bilan qo'zisini o'tlatardi. Birdan qornida chidab bo'lmas bir og'riq turdi... Hali peshin bo'lmagandi. Qoraxol bilan onasini qo'raga olib kelib, og'ilga qamab qo'yishga ko'ngli bo'lmadi: "Ular o'tlay tursinlar. Men uyga borib, og'riqni qoldirish chorasini ko'ray. Ahvolim yaxshilanishi bilan qaytib kelaman..." , deb o'yladi. Biroq, sovlig'i o'ynoqlab, uzoqlarga ketib qolishidan xavotirlandi.

¹ So'ba - pechka. Tarjimon izohi.

Shu sababli xaltasidagi arqonchani chiqarib, uni bir daraxtga bog'ladi. "Qo'zini bog'lashning keragi yo'q. Shundog'am onasidan ayrilmaydi", degan fikrga keldi. Va jadallik bilan qishloq tomonga qarab yo'l tutdi...

Qo'y bilan qo'zi peshingacha o'tladilar. Quyosh tik kelganda, qo'y daraxtning tagiga yotdi. Qo'zichog'ini ham yoniga chaqirdi. Lekin Qoraxol bu yerda yotishni xohlamadi, maza qilganча "ba-ba"lab o'yinlarini davom ettirdi. Birozdan so'ng sovliq o'rnidan turib, yangidan o'tlashga kirishdi. Atrofidagi o'tlar yaxshigina kemirilgandi, bo'ynidagi tizimcha tufayli boshqa yoqlarga ketolmas: "Buvi qayerda qoldi? Kelsa, bo'ynimdagi ipdan qutulardim. Tutqunlik ham yomon ekan", degandek, yolvorib ma'rardi.

Birozdan keyin yonlariga katta bir qo'chqor bilan boqilgan bir qo'y keldi. Ularning orqalarida ikkita qo'zi ham bor edi. Qoraxol qo'zilarni sevinib qarshi oldi. Ertalabdan buyon siqilib ketgandi... Ular bilan do'stlashib o'ynagisi kelardi. Mayin-mayin "ba-ba"lab yonlariga tiqildi. Uchovlon bir fursat chiroyli-chiroyli o'ynadilar. So'ngra Qoraxol tantiqlana boshladi. O'yin paytida go'yo hazil qilar,



qo'zilarning oyoqlarini chalib, ularga tegajoqlik qilardi... Qo'zilar uning bu xatti-harakatlariga e'tibor berishmasdi. Bora-bora Qoraxolning sho'xliklari orsizlikka aylandi. Qo'zilarning junlariga oxurdan qumaloqlar yopishgandi. Hammasining ham po'stini kir-chir ko'rinardi.

Qoraxol:- Namuncha iflossizlar. Yunqlaringiz kir. Hammangizdan qumaloq hidi keladi. Irgandim sizlardan, - deganda, qo'zilar achchiqlandilar. Ustiga otilib, Qoraxolni chang-to'zonga dumalatib tashladilar. Qoraxol tug'ilgandan beri ilk bora bunday zo'ravonlikka uchragan edi. Oldiniga esankirab qoldi. So'ngra u ham qo'zilarning ustiga otildi.

Onasi: - Qoraxol, yonimga kel. Urushma ular bilan. Otalari achchiqlansa, shoxlari bilan qorningni teshadi,- deb baqirdi. Lekin Qoraxol onasiga quloq solmasdi. Yaxshi boqilgani uchun narigi qo'zilardan kuchliroq edi. Ikkisini ham suzib-suzib tashladi. Ota qo'chqor bu g'avg'oni uzoqdan kuzatardi. Bolalarining Qoraxoldan zarba yeganlarini ko'rganda, u xirillay boshladi.

Qoraxol: - Hammangizni suzib o'ldiraman...ha!.. ha!..- deya qo'zilarni jangga chaqirar edi. Qo'chqor





pish-pish nafas olib Qoraxolning yoniga keldi. Dag'al bir ovoz bilan:

- Menga qara, kichkina. Ozgina men bilan ham olishib ko'r,- deya gurulladi.

Sovliq achchiqlangan qo'chqorning Qoraxolni shoxlari bilan parchalab tashlashini bilgandi... Jonini tishiga to'plab bo'ynidagi arqonni bor kuchi bilan uzishga urina boshladi. Arqon birpasda bo'ynini kesdi. Yarasidan qon sizardi. Ammo sovliq bunga parvo qilmasdi. Hech tinchiyolmas, ipni torta-torta uzish uchun jonini jabborga berar edi.

Qo'chqor bilan tumshuqlari ro'baro' kelganda, Qoraxolning quti uchdi. Qo'rquvdan titrab:

- Oyiiiii, qutqaring meni!- deya achchiq-achchiq ma'ray boshladi. Onasi Qoraxolga yordamga shoshilib sabrsizlanar, telbalarday u yoqdan bu yoqqa otilib, zirillardi.

Qo'chqor Qoraxolga otilarkan, arqon uzildi. Sovliq bo'ynidan ochilgan yaraning achchiq og'rig'idan ingragancha oldinga otildi. Bir nafasda uchib borib, qo'chqor bilan Qoraxolning orasiga kirdi. Shu onda qo'chqor kerilib, kuchli bir zarb bilan sovliqni shoxladi. U yerga dumaladi. Azobdan g'ujanak bo'larkan:



- Qoraxol, qoch, o'zingni qutqar, - deya baqirardi. Qo'chqor ikkinchi bor suzishga hozirlanardi. Birdan adirning etagida Amina buvi ko'rindi:

Kampir: - Hay, urishmanglar! - deya baqirib harsillagancha ularning yonlariga kelardi.

Qoraxol sevinch bilan buviga qarab chopdi.

Buvi uni quchoqlab:

- Voh, qo'zichog'im-a, seni yomon qo'rqitishipti, - dedi uni bag'riga olib. Yurakchang duk-duk uryapti! - deya sevib siypaladi. Qo'chqor esa, buvining ovozini eshitib, qattiq sarosimaga tushdi. Bundan foydalanib qolgan sovliq joyidan sakrab turib, to'g'ri buvi tarafga chopib ketdi.

Buvi bo'lgan voqealardan xabarsiz edi. Sovliq yoniga kelganda:

- Nega ipni uzib qochding? Shunday qo'chqor bilan urishishga uyalmaysanmi? Bolangga yomon o'rnak ko'rsatibsan. Sening bu qilig'ingni sira yaxshi deyolmayman, - deya baqirib, ginaxonlik bilan qulog'ini cho'zdi. So'ngra Qoraxolni bag'riga bosib, javray-javray qishloqqa yo'l oldi.

Yarador sovliq esa:

- Bularning hammasiga Qoraxolning yomon qilig'i va taltayishi sabab bo'ldi, - deya ingraganCHA, Amina buvining ketidan ergashdi.



JAHLI YOMON AYIQCHA

Yurtimizning yuksak yaylovlaridan birida bir guruh kon izlovchi geologlar toshko'mir izlamoqda edilar. Guruh boshlig'i yosh bir muhandis edi. Qidiruv ishi qiyin sharoitlarda olib borilayotgandi. Ammo muhandis Demirbey va uning yordamchilari qidiruv ishlarini umid va shijoat bilan davom ettirmoqda edilar.

Qilinayotgan ish Vatan oldidagi yuksak topshiriq ekanligidan Demirbey har qanday og'ir vaziyatlarda ham sabr-toqatni qo'ldan boy bermas edi.

Har kuni erta bilan uch, besh kishilik guruhlar yon-atrofga tarqalardi. O'ngu so'lni qazib, burg'u bilan teshib, ko'mir tomirini topish uchun astoydil mehnat qilardilar. Uch kishilik bir guruh yaylovning naryog'idagi o'rmonda qazilma ishlari olib borardi.

O'rmon qor bilan qoplangan, daraxtlardan uzun-qisqa sumalak-muzlar osilib turardi. Sovuq esa odamning suyak-suyagidan o'tib ketayotgan edi. Ma'danchilar isinmoq uchun turgan joylarida yer tepinar edilar. Birdan, oyoqlari ostida dum-dumaloq kichkina bir ayiq bolasi paydo bo'ldi. Bamisoli sariq jundan yasalgan koptokni





eslatuvchi ayiqcha gorning orasida tepinib turardi. Ustaboshi Bekir shu ondayoq yerga engashdi. Mehr bilan go'dak ayiqchaga qo'lini uzatdi. Endi quchog'iga olmoqchi bo'lib turgandi, do'stlari uni to'xtatdilar:

- Hoy-hoy, to'xtang, og'abey! U ayiqchani qo'lga ola ko'rmang. Onasi yaqin orada bo'lishi kerak. Ayiqchaga ziyon yetkazishyapti, deb o'ylab ustimizga otiladi. O'zimizni tahlikaga qo'ymaylik.

Bekir bu so'zlarni eshitgan zahoti, ortiga tisarildi. Mitti ayiqchadan uzoqlashdi. Ammo ayiqchanning hech ulardan ayrilish niyati yo'q edi. Ishchilar:

- Bor, ket, bu yerdan, iningga kir! - deya uni kelgan yeriga haydadilar.

Ammo ayiqcha parvo ham qilmadi. Ma'danchilar ovozlarni balandlatib, uni astoydil quvaladilar. Ayiq bola bundan vahm bosib, dumaloqlandi va ikki-uch odim nariga ketdi. So'ngra darrov orqaga qaytdi. U tim qora ko'zlarini katta-katta ochib, odamlarga tikila boshladi. Bu murg'ak vujud shu holda shunday bir sevimli, shunday jonga yaqin ediki!..

Holbuki, ma'danchilarning u bilan shug'ullanishga vaqtlari yo'q edi. Ular darhol qo'llaridagi xaritaga qarab, yana



qazuvni boshladilar. Qalin qor, muz qatlamlarini ko'tarib tashlab, tuproqni ochish benihoya qiyin edi.

Ma'danchilar bunday qiyinchiliklarga o'rganib ketganlari uchun g'ayratni susaytirmay, ishga kirishdilar. Kun qorayguncha ishladilar. So'ngra ish qurollarini yig'ishtirib qarorgohga qarab yo'lga chiqdilar. Hammalari ham bola ayiqchani unutgandilar.

Geologlar horg'in-horg'in yo'l bosib borarkanlar, nogahon bir g'aroyib ovozni eshitib seskandilar. Orqalariga o'girilib qarashganda, bola ayiqchani ko'rdilar. Ayiqcha qor uyumlari oralab, bir botib, bir chiqib, bir yiqilib, bir turib ularga qarab kelmoqda edi. Ma'danchilar nima qilsalar-da, undan qutulolmadilar.

Qarorgohga borganlarida, atrofni yaxshigina qorong'ilik bosgandi. Sovuqdan qaltirab yotoqqa kirdilar. Bola ayiq ham orqalaridan "lip" etib ichkariga tiqilib oldi. Hamma shu yerga to'plangandi. Ayiqchani ko'rganda ma'danchilardan biri:

- Og'aynilar, bu ayiq bolani inidan ayirganingiz to'g'ri bo'lmaydi. Halizamon onasi bostirib keladi. Hamma yoqni vayron qiladi, - deya tanbeh berdi. Yangi kelganlar ahvolni tushuntirishga



harakat qilisharkan, bola ayiq borib muhandis Demirbeyning oyoqlari orasiga suqildi. Demirbey bu sevimli mittivoyni quchoqlashdan o'zini tiyolmadi.

Shu tariqa ularning orasida aql bovar qilmas bir mehr va do'stlik boshlandi.

O'sha kundan keyin bola ayiq qarorgohning ermagi bo'ldi-goldi. Uni hamma yaxshi ko'rardi. U ham hammani yaxshi ko'rardi. Ammo hammadan ham Demirbeyni sevardi. Uning oyoq tovushlarini juda uzoqlardan eshitar, joyidan o'qday uchib borib quchog'iga otilardi.

Ayiqchaga Shemo deb ot qo'ydilar. Shemo qarorgohning birdan-bir arzandasi edi. Unga har kim bir narsa o'rgatardi. Shemo ko'p o'tmay orqa oyoqlarida turib yura boshladi. So'ngra dasturxonga ovqat tashib kelishni organdi. Kurashda ham tengi yo'q edi.

U qarorgohdagi jamiki ma'danchilar bilan kurashardi. Kuchlilar bilan kuchsizlarni shunday ajratardiki!.. Zaiflarni ranjitmaslikka urinsa, kuchli ma'danchilar bilan hayot-mamotga kurash tushardi.

Shemoning tobora yiriklashib, ulg'ayib borishi Demirbeyni xavotirga solardi. Ishchilar ham shunga o'xshash xavotirga tusha boshlagandilar. Qishning



o'rtalarida ma'danchilardan biri Shemoga chanada o'tin tashishni o'rgatdi. Shemo shu tarzda o'rmondan qishlik o'tinlarni tashiy boshladi.

Demirbey uning ot kabi chanaga qo'shilishini yoqtirmadi. To'g'rirog'i, unga rahmi keldi. O'z fikrlarini hamkasblariga aytdi. Ishchilardan biri uning fikriga qo'shilmadi:

- Shemoni biz ham sizchalik sevamiz, beyim. Holbuki, ayiqcha borgan sari baquvvatlashyapti. Uning kuchini foydali ishlarga yo'naltirmasak, bizga va atrof-muhitga zarar yetkazishi ham mumkin, - dedi.

Demirbey ishchi haqligini tan oldi. Zotan, Shemo chana tortishni astoydil zavq bilan ado etardi. Chanaga qo'shilmoq unga o'yindek ko'rinardi.

Uni chana tortayotganda ko'rish har kimning zavqini keltirardi. U bilan o'rmon yo'llarida uchrashib qolgan ma'danchilar ayiqning boshini, yag'rinlarini silashdan o'zlarini tiyolmasdilar.

Zotan, Shemo nima qilmasin, atrofda gilarining zavq-shavqini keltirardi. Kichikligida, Demirbey uning yotoqda yotishiga izn bergandi. Ammo yiriklashganda, kechalari tashqarida yotishini ma'qul topdi. Shemo bu



o'zgarishga ichidan qattiq jahllandi. Kun bo'yi yotoqning panjarasiga burnini tirab, yig'laganday ovoz chiqarardi. Ammo Demirbey uni yotoqxonaga qo'ymadi.

Bir kecha asbob-uskuna, telefon va boshqa uskunalar turadigan xonadan g'aroyib shovqin eshitildi. Demirbey darhol yotog'idan uchib chiqdi. Bir necha ishchini ham uyg'otdi. Ular qurollanib o'sha xonaga bordilar. Hamma narsa joy-joyida turardi. Hech narsa joyidan surilmagan. Istar-istamas yotoqlariga qaytdilar.

Faqat... faqat Demirbey o'rniga yotolmadi. Chunki Shemo bo'y-basti bilan uning o'rnida cho'zilib yotardi. Ayiq panjalari bilan ko'zlarini yopib olgandi. Demirbey uni o'rnidan turg'azib tashqariga chiqarish uchun ko'p yalinib-yolvorishiga to'g'ri keldi. Jihozxonadagi shovqinni Shemo ko'targaniga ishchilarda shak-shubha qolmadi. Yotoqxonaga kirib olish uchun shunday bir o'yinni o'ylab topgan, deb gumon qilardilar. Chunki Shemoning bu tur hazillari va kulgili mojarolari tillarda doston edi. Uning bilan aloqador hikoyalar to qo'shni qishloqlarga ham yoyilgandi. Ba'zi qishloq odamlari ishlarini qoldirib yaylovga chiqishar, Shemo bilan tanishardilar.

Afsuski, uning so'nggi mojarosi atrofdagilarni zavqlantirmadi. Bu safar Shemoning qilmishlariga hech kim kulmadi. Qilgan ishlariga mukofot beruvchilar ham bo'lmadi. Aksincha, voqeani eshitgan har bir kishi dahshatga tushdi. Bir onda hamma undan yuz o'girdi. Tantiq Shemo bu qilmishi bilan odamlarning nazaridan goldi.

Qarorgohga bir yangi ishchi olingandi. Shemo, boshqalar bilan bo'lgani kabi, u bilan ham kurash tushishni istadi. Panjasini ishchining kuragiga botirganda, ishchi qo'rquv bilan oldinga uchdi. Bor kuchi bilan qocha boshladi. Shemo, o'yin qilyapti, deb o'ylab, uning ortidan tushdi. Bir nafasda yetib olib, odamni qo'llarining orasiga oldi. Yangidan kurashga kirishdi. Ishchi shu qadar dahshatga tushdiki!.. Shemo o'zini o'ldirmoqchi, deb o'yladi. Ko'pchilik yotoqdan uzoqlashib ketgan bir payt edi. Atrofdan kimsa yo'q edi. Ishchi jon achchig'ida faryod ko'tardi. Shu topda ayiqdan qutulishdan boshqa narsani o'ylamasdi. Shu asno yerda turgan katta temir qaychini ko'rди. Bir zumda uni olib, bor kuchi bilan Shemoning kallasiga tushirdi.

Shemo hech qachon bunday og'riqli zarbani yeb ko'rmagandi. Shu bois jahl



bilan xo'rillab, odamni ko'tarib yerga urdi.

Qovurg'a suyaklari va qo'llari singan ishchi Demirbeyni sudga berdi. Sudya bu noxush hodisani sinchiklab o'rgandi. Shemoga oid hangomalarni tingladi. Insonning do'stiga va uy hayvoniga aylangan ayiqchanning ne sababdan ishchiga hujum qilganiga aqli yetmasdi. Oxirida ayiq quturgan bo'lishi mumkin, degan fikrga kelib, ayiqchani otib tashlash kerak, deya hukm chiqardi.

Sudyaning bu qarori Demirbeyni qattiq ezdi. U Shemoning aybsizligiga ishonardi. Ko'ra-bila turib otilishiga hech rozi bo'lolmasdi. Demirbey darhol poytaxtdagi hayvonot bog'iga telefon qildi. Shemoning qilmishlari va fe"li to'g'risida gapirib berdi, "uni hayvonot bog'iga olish mumkinmi?" deb so'radi. Olinajak javob muhim edi. Hayvonot bog'ining mas'ul kishilari Shemoning bo'g'da yaxshi yashab ketishiga Demirbeyni ishontirdilar.

Demirbey Shemo uchun maxsus qafas yasattirdi. Ayiqchani uning ichiga joyladi. O'zi olib borib, yuk poyezdiga chiqardi.

Shemo shu qadar dardli ediki!.. Ishchiga zarar berganini anglamasdi. O'zini kechirishlarini yolborgandek



hadeganda panjasini boshidagi yarasiga qo'yardi. Alamli ingroqlar bilan ishchiga hujum sababini anglatishga harakat qilardi. Demirbey poyezd joyidan qo'zg'alguncha uning yonidan ayrilmadi. Qo'lini qafasga suqib, Shemoning yarasini siypaladi. Shirin so'zlar aytib, ko'nglini olishga urindi.

Poyezd qo'zg'alganda, Demirbeyning ichidan ayanchli bir o'kirik otilib chiqdi. U to'ppa-to'g'ri yaylovga yo'l soldi. Yotoqqa borarkan, Shemoning chanasiga ko'zi tushdi. Ichidagi yaraga tuz bosilganday bo'ldi. Shunchaki bir ermagidan ayrilishning iztirobi emasdi bu alam. Yurakdan sevib qolgan bir do'stini yo'qotgan kabi edi...

Yurakdan istaganiga qaramay Demirbey poytaxtga faqat uch oydan keyingina bora oldi. U poyezddan tushar-tushmas, to'g'ri hayvonot bog'iga shoshildi. Ayiqlar joylashgan bo'limga yaqinlasharkan:

- Shemo, Shemo! Qayerdasan, o'g'lon? Shemo, men keldim...- deya baqirardi. Shu asno qorovul yo'lini to'sdi:

- Shemoni axtaryapsizmi, beyim?

Demirbey qorovulga sevinch bilan javob berdi:

- Ha, ha, uni ko'rish uchun sabrim yetmayapti. U mening yaqin do'stim...



Demirbey qorovulning yuzidagi hazin ifodani ko'rganda, beixtiyor titrab ketdi:

- Nima bo'ldi? Shemo kasal bo'lib goldimi yo?

Qorovul xo'rsinib javob berdi:

- Kech goldingiz, beyim, Shemo degan ayiq, shu qadar qaysar bir hayvon ekanki!.. Unga necha kun, haftalar va hatto oylarcha, har neki qilmaylik, bo'g'zidan bir luqma ovqat o'tkazolmadik. Faqatgina suv ichardi jonivor. Bu yerga kelgan kundan beri hech kimning yuziga qaramadi. Kelgan-ketganga doim orqa o'girardi, u go'yo butun odamizotdan xafaday edi. Shu yerdagi qafasning bir burchagiga biqingancha eridi-ketdi.

Demirbey alam to'la ovoz bilan qorovulning so'zini bo'ldi:

- Shemo o'ldi, demoqchimisiz?!

Qorovul:

- Ha,- dedi,- o'tgan hafta o'ldi. Sizga uning bo'ynidan chiqarilgan qo'ng'irog'ini berishim mumkin,- deya bo'lmasiga qarab ketdi...

Demirbey aqlidan ozgan odamday qaqqayganча turib goldi...

LAYLAK QORDA QOLDI

Bahor kelgan, qirlar yashargan, daraxtlar gullagandi. Erdirlarning uyi oldida qarigan, shox-yaproqlari yo'q, qurigan bir majnuntol bor edi. U bamisoli ulkan bir simyog'ochday qaqqayib turardi. Tevarakdagi daraxtlar gullay boshlaganda bu tol tanasi yanada xunuk ko'rinardi. Lekin bu xunuklik uzoq davom etmasdi. Uning tepasida kattakon bir laylak uyasi bor edi. Uyaning mehmonlari kelganda, tol tanasi ham jonlanib, quvnab qolardi.

Bir kuni ertalab Erdirning onasi:

- Xushxabar, xushxabar! Laylaklar kepti! - deya baqira-baqira o'g'lini uyg'otdi. Erdir uyquli ko'zlarini ishqalab deraza tomon yugurdi. Qurigan tol daraxtining ustidagi uyada ikki laylak turardi. Ular bo'yinlarini birbiriga o'rashgan, ajrashmay viqor bilan turishardi.

Erdir o'shanda uchinchi sinfga borardi. O'qituvchisi "Tabiatshunoslik" darslarida laylaklarga aloqador juda ko'p narsalarni gapirib bergandi. Ularning qayerlarga uchib ketishlarini, ko'chish jarayonidagi uchish tartiblarini o'rgatgandi. Erdir bu qushlar dengizlarning naryog'idagi



o'lkalarga borgandan keyin, hech adashmay qaytib, aynan avvalgi uyasiga qo'nishlarini eshitganda, rosa hayratga tushgandi. Bolakay bir lahza ko'zlarini laylaklardan olmay, derazalarining oldida suyanib turdi, so'ng onasiga o'girildi:

- Kuz kelganda laylaklar nimaga ko'chib ketishadi? Shuncha mehnatlari uvol emasmi? Bu yerda o'z uylarida bemalol qishni o'tkazsalar bo'ladi-ku?!

- Bo'lmaydi, o'g'lim! Yashashga mos bir boshpana solsalar ham, qishda bu yerlarda yegulik topolmaydilar.

- U holda o'sha borganlari - issiq o'lkalarda yashasinlar.

- Bu yerlarga bolalash uchun keladilar. Tuxumdan chiqqan murg'ak polaponlar u yerlarning issiqlariga chidolmaydilar. Ustiga-ustak yeguliklar ham siyraklashadi u yerlarda. Qolaversa, bu yerlarda ko'klam kelganda chuvalchanglar, qurbaqalar, ilonlar, kaltakesaklar bisyor bo'lib ketadi. Laylaklar bolalarini shular bilan boqib, osongina ulg'aytiradilar.

- Demak, laylaklar yurtimizga bola o'stirishga kelarkanlar-da?

- Ha, o'g'lim. Bu yerga kelar-kelmas oldin uyalarini sozlaydilar. Keyin urg'ochi laylaklar tuxumlab, tuxum bosib



yotadilar. Ota-laylak...

Erdir onasining so'zini bo'ldi:

- Bilaman, bilaman... Ota laylak tinimsiz uyaga yeguliklar tashiydi. Polaponlar tuxumdan chiqqanda, dastlabki kunlar ularni ona-otalari oziqlantiradi. Necha yillardan beri kuzataman: Polapon laylaklar juda ochko'z bo'ladilar. Tumshuqlarini osmonga qarata ochib, tinmay yemak istaydilar, to'yishni bilmaydilar.

- Albatta shunday qilishadi, o'g'lim. Mo'l-mo'l ovqat yegandan keyin tabiiyki, juda tez ulg'ayadilar. Qanotlari kuchlanadi. Uchishni o'rganadilar. Kuzda ona-otalari bilan birga olis safarga otlanadilar.

- Bu yil bolalaridan birini uyga olib boqsak nima bo'larkin?

- Hoy-hoy, ehtiyot bo'l! Laylaklar, uyasiga yaqinlashganlarning ko'zini o'yadi. Laylak uyasiga qo'l tekkizish baxtsizlik keltiradi. Shuni xayolingga tugib qo'y! Laylak qutli qush. Insonlar laylakning etini ham, tuxumini ham yemaydilar...

- Qush bo'lgandan keyin tuxumi juda mazali, ham rosa yirik bo'lsa kerak. To'g'risi, laylak tuxumining mazasini bilgim keladi.

Erdirning onasi bu so'zlarni eshitgach



xavotiri yanada oshdi.

- O'zing asra, Tangrim! Tovba, tovba! Muncha bema'ni gaplarni so'zlaysan! Senga necha marta aytaman? Laylak eti, laylak tuxumi yeyilmaydi. Laylakka tosh otish ham gunoh sanaladi. Qo'llaring sinadi. Baxtsizlik keladi boshingga. Uyaga yaqinlashganingni ko'rsam, o'zim tayoqlab o'ldiraman seni...

Erdir onasining bu qadar achchiqlanishidan hayron bo'ldi:

- Tovuqning, kurkaning, g'ozning, o'rdakning etini, tuxumini yeymiz, gunoh bo'lmaydi, baxtsizlik keltirmaydi, laylakniki nega gunoh bo'larkan?- deya so'rashdan o'zini to'xtatolmadi. Onasi bu so'zlarni eshitganda, go'yo g'azab otiga minib, o'rnidan sakrab turdi. Oyog'idan tuflisini yechib olib, uning ustiga bostirib kela boshladi:

- Sen milliy an'ana, odat-qadriyat nima, bilasanmi? Biz shunday tarbiyalandik, shunday o'rgandik. Shunga ishonib, shunday qilamiz. Hech qachon buning sababini so'ramadik kattalarimizdan. Ularning aytganlari hamma vaqt to'g'ri bo'ladi.

Ona bu gaplarni aytaturib, o'g'lini o'xshatib savadi .

Erdir kaltak yedi, ammo yana onasining so'zlariga va tanbehlariga aqli bovar





qilmadi. Aksincha, onasi aytganlarining teskarisini qilib ko'rishga qiziqishi yanada ortdi. Fursat kelishi bilan laylak tuxumlarini uyadan olib yeyishga qarcor qildi.

Shu tariqa bir necha kun o'tdi. Bir kuni kechqurun onasi uyda bo'lmadi. Erdir eshikdan tashqari chiqdi. Atrofni kuzatib payt poylab turdi. Tol daraxtiga yaqinlashdi. Qo'lidagi uzun tayog' bilan xodani taqillatib laylaklarni hurkitdi va inidan uzoqlashtirdi. Bir lahzada tolga tirmashdi. Uyadagi uch tuxumni olib uyga qaytdi. Daraxtdan tushayotganda tuxumlardan biri singandi. Uni pirillatib boqqa uloqtirdi. Boshqalarini shamol tezligida tovaga solib ilitdi. Endi bittasini chaqib yemoqchi bo'lib turganda, onasi kelib qoldi. Erdirning qo'lidagi tuxumlarni ko'rib, o'g'lining ustiga otildi va duch kelgan yeriga bor kuchi bilan ura boshladi.

Erdir jon achchig'ida:

- Urmang, oyijon, urmang ! Boshqa qilmayman. Istasangiz, darhol joyiga qo'yaman tuxumlarni,- deya yolvorardi.

Onasi bunga javoban jahl bilan hayqirdi:

- Yaxshilikni bilmaydigan bola! Albatta qo'yasan tuxumlarni. Albatta boshqa qilmaysan. Agar yana shunday



qilsang, qo'llaringni sindiraman!

Ona-bola birga tashqariga chiqdilar. Laylaklar motam tutib, "lak-lak"lab uyaga qo'nar va yana sakrab turardilar. Ular tuxumlarining yo'qolganini anglagandilar. Ona uzun tayoq bilan ularni haydarkan, Erdir tepaga tirmashib, tuxumlarni uyaga qo'ydi.

O'sha kecha ona-bola ovqatlarini yeb tinchgina yotdilar. Erdir onasini bo'lgan ishlarni otasiga aytmaslikka ko'ndirdi. Bu hodisa ona-o'g'il o'rtasida qolishi kerak edi. Erdir yotog'iga uzanib yotganida yana onasining laylaklar haqidagi so'zlarini eslay boshladi.

"Onam kelib qolmasa, tuxumlarni yerdim. Laylak uyasiga qo'l tegizdim, ammo qo'llarim sinmadi. Tuxumlarni yesaydim, hech balo bo'lmas edi. Onam bo'lar-bo'lmas irimlarga amal qiladi, qo'rqqoq bir inson. Nuqul "Shunday o'rgandik, shunday eshitdik, shunday deb bilaman, shunday qilaman", - deydi". Shularni xayolidan o'tkazarkan, uni uyqu bosdi.

Yarim kechasi birdan dod-faryodlardan uyg'ondi. Onasi bilan otasi bir nafasda kiyinib, «yong'in, yong'in», deya baqirishib, bozor tomonga yugurishdi. Erdir eshik oldiga chiqdi. Bozor tomondan yonib yuksalayotgan alanga



yorug'i bolaning ko'zlarini qamashtirdi. Yugurgilagan qoni-qo'shnilar ko'chalarni to'latishgandi. Qo'rg'onchanning temirchisi ham yong'in chiqqan joyga qarab chopib kelardi.

Erdir, oldinga chiqdi:

- Nima bo'ldi, Hasan amaki? Qayerga o't ketibdi?

Hasan Temirchi uni hovliqtirib javob qaytardi:

- Sizlarning do'koningiz yonyapti ekan, o'g'lim. Otangning do'koni tutayapti.

Erdirning otasi baqqol edi. O'sha kecha do'konning katta bir qismi yonib kul bo'ldi. O't o'chiruvchilar bilan birga qo'shnilar chopib kelishmaganda, do'kon tag-tugi bilan yonib bitardi. Bu voqeadan oila a'zolari qattiq qayg'urishdi. Erdirning onasi xojasi uyga qaytganda falokat sababini so'radi:

- Yong'in nimadan chiqipti, dadasi?

- Aniq bilmayman. Kechqurun havo bir sovuqlashgandi. Manqalda bir hovuch ko'mir tutashtirdim. Do'konning o'rtasiga qo'ydim. Uyga kelayotganda cho'g'larni kul bilan yaxshilab ko'mgandim. Cho'g' sachragan bo'lishi mumkin emas. Faqat, ba'zan-ba'zan mo'ridan kolbasami, yo biron boshqa narsa o'g'irlash uchun mushuk kirardi.



Balki yana shunday bo'lgandir. Qorong'ilikda bexos manqalga yiqilgandir.

- O'tgan yili mo'riga sim to'r o'rnatgandingiz. U yerdan mushuk kirishi mumkin emas-ku?

- Eeee? - dedi, - jinlar, parilar yiqitganmi manqalni? Balki mo'ridagi simto'r teshilgandir.

Ona ortiq savol bermadi. Qo'rquv to'la nazarini Erdirga qaratdi. Boshidan to oyog'igacha unga sinchkovlik bilan tikildi. Erdir: "Tamom, - deya xayolidan o'tkazdi, - men laylak uyasiga qo'l tekkizganim uchun onam meni ayblayotir. Yong'in shu tufayli chiqqan, deb o'ylayapti. Naqadar yomon bir tasodif! Endi uning ta'nalaridan qutulolmayman..." Onasining teshib yuboradigan qarashlaridan qutulish uchun xonadan chiqdi.

Otasi yaqinlaridan qarzga pul ko'tarib, do'konni ta'mirlab oldi. Ammo topar-tutari avvalgiday emasdi endi. U do'konni ta'mirlashga harakat qilayotganda, bozorda yangi bir baqqollik do'koni ochilgandi. Qarabsizki, xalq qisqa bir vaqt ichida o'sha do'konga o'rgandi. Ota shu sababli qiynalib qoldi. Qarzini uzish uchun uy xarajatlarini qisqartira boshladi.



Hatto Erdirning eskib ketgan oyog kiyimlarini yangilab berishga ham kuchi yetmay qoldi. Ahvollari kundan-kunga yomonlashaverdi. Ona har fursatda bu siqilishlarning sababi nima, deb, Erdirning gunohini eslatar, miyasini qoqib qo'liga tutqazar edi.

Maktablar ham ta'til sabab bekilgan, Erdir endi do'konda otasiga yordam berardi. Otasining unga bunday vazifa yuklaganligi juda zerikarli edi. U o'tgan yillardagi kabi bu ta'tilini ham ko'chada o'ynab o'tkazmoqchi edi. Holbuki, otasi pulsizlik tufayli do'konni tozalaydigan bir dastyor bolani ishga ololmagandi. Endi u ishlarni Erdir bajarishga majbur edi.

Erdir bir kun uyga oqsoqlanib keldi. Tarozini ag'darayotib oyog'ining ustiga toshlarini tushirib yuborgandi. Barmoqlari ezilgan, ustiga-ustak yana otasidan ham kaltak yegandi. Onasi piyozni tuz bilan ezib oyog'iga o'radi. So'ngra uni derazaning oldiga o'tqazdi. Keyin esa qarshisiga kelib gapira boshladi:

- Boshimizga har kuni bir yomonlik kelyapti. Hamma baxtsizliklar sen tufayli bo'ldi. Laylakning uyasiga qo'l tekizma dedim, aytganimni qilmading!

- Voy, oyi! Shu gapga yomon yopishib



oldingiz-da...

- O'chir, gap qaytarma! Bir bilgan narsam bordirki, aytganlarimda turib olyapman. Bularni oyimdan eshitganman men. Unga ham oyisi aytib bergan. Buvim qayerdan bilardi? Albatta unga ham oyisi, buvisi aytgan-da...

Shuncha odam yolg'on gapiradimi? Sen menga ishonmading, boshingdan falokat arimayishlar o'tib senga saboq bo'lyapti. Ko'raylik, yana nimalar bo'larkin? Qanday ofatlar yog'ilarkin boshimizga?

Erdirning ichini bir on qo'rquv qopladi. Onasi esa so'zlarini yana davom ettirdi:

- Bilasanmi? Atrofdagi laylaklarning bolalari tuxumdan chiqdi. Bizning laylak hamon tuxum bosib yotipty.

- Nega?

- Men qayoqdan bilay... Tuxumlar chatnagan yo singandir, ehtimol?

Erdir qip-qizil bo'lib ketdi. Ammo yana yolg'on so'zlashdan o'zini tiyolmadi.

- Tuxumlarni uyaga qo'yayotganimda ikkisi ham bus-butun edi.

- Eeeee? Unday bo'lsa nega chiqmayapti polaponlar? Yoz keldi. Boshqa laylaklarning bolalari ulg'ayib, temir qanot chiqara boshladi. Bizning laylak



hanuz tuxumlari ustida kutib o'tiripti. Ota laylak birinchi kunlar unga mo'l-mo'l yeguliklar tashiyotgandi. Endi bu ishdan zerikdi. So'nggi kunlarda tongda ketib, oqshomgacha uyaga kelmaypti. Ona laylak och, tashna bo'lsa-da, uyada tunab qolyapti. Achinyapman unga.

Erdir bu so'zlarni eshitganda astoydil xijolat bo'ldi. Ammo qo'rqqanidan onasiga tuxumlarni tovada ilitganini aytmedi. Shu tariqa yoz ham o'tdi. Boshqa manzillarda qo'noqlagan laylaklarning bolalari ulg'ayib, laylak galalari bilan birga ko'k yuzida suza boshladilar. Qurigan tolning ustidagi laylak hamon umid bilan bolalari tuxumdan chiqishini kutib yotardi.

Kuz kelganda atrofdagi laylaklar samoda gala-gala to'planib ucha boshladilar.

Bu ko'chish hozirligi edi. Ona laylak bu uchishlarga qo'shilmayotgan edi. Ota laylak bir necha kun uning atrofida qanot qoqib yurdi. Tumshug'i bilan turtkilab, qanotlari bilan itarib uni galalarga qo'shishga tirishdi.

Lekin ona laylak tuxumlarning ustidan ayrilmasdi. Keyinroq boshqa laylaklar ham kelib ona laylakning atrofida uchdilar. Uni oralariga olishga



urindilar. Ammo harakatlari zoye ketdi.

Havo borgan sari sovib borardi. Bir kuni saharda barcha laylaklar yig'ilishib kelib, so'nggi marta ona laylakning atrofida aylandilar. Hammalari bir bo'lib uni itarib, turtib inidan uchirdilar. Ko'chayotgan galalarga go'shilib ko'k yuzida tizildilar. Erdir ila onasi bu voqealarni derazadan kuzatib turishardi... Laylakning ketayotganiga suyundilar.

- Ming qatla shukur,- dedi Erdirning onasi,- bizning laylak ortiq qarshilik qilishdan voz kechdi. Xudo xohlasa, bu yil sog'inib erisholmagan bolalariga, kelasi yil erishar.

Erdir ham chin yurakdan onasining istagini quvvatladi:

- Men ham shuni tilayman!

Ertasi tong uyg'onar-uyg'onmas, har kungi odatiga ko'ra pardani ochdi. Laylak uyasiga qaradi. Va nimani ko'rdi, deng? Ona laylak qaytib kelgan, necha oylardan buyon bosib yotgan tuxumlarining ustiga o'tirgandi.

- Iya! - degan ovoz chiqdi ichidan. Onasi o'rinlarni yig'ayotgandi. Xavotir ila o'g'lining yoniga chopib keldi.

- Nima gap? Nima bo'пти?

Erdir hayajon bilan uzuq-yuluq javob berdi onasiga:



- Oyi, laylak ko'ch galasidan ayrilib uyasiga qaytibdi.

Kuz tushishi jadallab borardi. Sovuq shamol telbalarcha esar, yomg'irning keti uzilmasdi. Ona laylak hamon bu noqulay sharoitlarga parvo qilmay, tuxum bosib o'tirardi. Qo'rg'oncha ahli bunday g'aroyib hodisani ilk bora ko'rayotgandi. Laylakning bu yerda qishlashini yaxshilikka yo'yanlar bilan birga yomonlikka yo'yanlar ham bo'ldi. Shuning bilan birga yettidan yetmishgacha har kim laylakka achinardi.

Bir kun maydon qorovuli tolga narvon tiradi. Kun bo'yi hech qimirlamasdan tunagan laylakka yegulik va suv berdi.

Laylak uning yaqinlashganini ko'rgach uvishgan qanotlarini silkitib, uyadan uchdi. Bir necha metr balandlikka ko'tarilib ortga qaytdi. Bu pallada qorovul tuxumlarni ko'rdi:

- Uyada ikki dona tuxum bor!-deya baqirdi. Pastda kutib turganlar bir ovozdan baravar baqirishdi:

- Ehtiyot bo'l, qo'l tekkizma! Boshingga baxtsizlik yog'iladi.

Qari kampirlardan biri:

- Laylak nega ketmaganligi malum bo'ldi,- dedi.- Tuxumlarini tashlab ketolmagan. Onalik tuyg'usi ustun kelgan. Tuxumlaridan polapon chiqadi,



deb o'ylagan. Demak aldanyapti. Shu sovuqda polapon ochib chiqarkanmi?

U yerda yig'ilganlar boshlarini chayqab afsus ila "uh" tortdilar.

Uylarda, qahvaxonalarda faqat ona laylakdan so'zlashardilar. Hech kimsa bu voqeaning sir-asrorini yecholmasdi. "Tuxumlar bus-butun bo'lgani holda, nega bola ochilmadiykin?" Har kim bir-biriga shu savolni berardi. Bu savolning javobini birgina inson bera olardi: Erdir. Lekin u hamon indamasdi.

Qish kirib, havo qattiq sovib borardi. Bir kun, qoq peshin mahalida ko'k yuzi qoraydi... Kunduzni nim qorong'ilik bosdi. Kechga yaqin birdan qorbo'ron boshlandi. Qor shunday ko'p, shunday shiddat bilan yog'ardiki! Qisqa vaqt ichida hamma yoq oppoq bo'ldi-qo'ydi. Odamlar uylariga tiqilib, issiq pechkalarining atrofiga tizildilar.

Erdir kechki ovqatini yeyar-yemas yotog'iga kirdi. Faqat uxlayolmadi. Hadeb yotoqdan otilib chiqib, burnini deraza oynasiga tirab laylakni kuzatardi. Birozdan so'ng u pechkaning orqasida shol ro'molga o'ranib o'tirgan onasi tomon suqildi:

- Oyijon, dadam bozordan kelganda, tashqariga chiqib laylakni uyga olaylik, maylimi?

- Bu quyunli qorbo'ronda uyaga chiqolmaymiz. Laylak ham uyasidan va tuxumlaridan ayrilmoqni istamaydi. Bizga hujum qilishi ham mumkin...

Erdir esa ich-etini yeyayotgan xavotirdan qutulish uchun tinmay takrorlardi:

- Uyasiga yegulik qo'ygan qorovulga hujum qilmadi-ku? Aksincha, uyadan uchib ishini qulaylashtirdi. Bizga ham hujum qilmas. Tuxumlarini ham keltirib qaznoqqa qo'yamiz. Laylakni ham o'sha yerga joylashtiramiz. Sovuq kunlar o'tgandan keyin...

Onasi uning so'zini bo'lib tashladi:

- Bo'lmaydi, qaznoqda un qopi, qurut, bo'g'irsoq, bug'doy xaltalari bor. Hammasini cho'qib tashlaydi, ustiga - ustak laylak va tuxumlarini uyasidan olsak, baxtsizlik keltiradi. Men shunday eshitganman, bizga shunday o'rgatishgan va men bunga ishonaman...

- Sovuqdan muzlab qolsa-chi?

- U polapon ochish, bolalariga yetishish uchun bu kunlarga chidab beryapti. Duo qilamizki, muzlamasin.

Erdir chuqur-chuqur xo'rsindi:

- O'lmasdan qishdan o'tib olsaydi, men ham sevinchdan osmonlarga uchardim.

O'sha kecha tong otguncha qor yog'di. Erdir saharlab erta uyg'ondi. Derazaga



yugurdi. Laylak tuxumlarini sovuqdan asrash uchun qanotlarini ikki yonga ochgan, shu holda muz qotib qolgan edi.

Uning o'limiga qo'rg'onchadagi katta-kichik jamiki aholi achindi. Ammo bu hodisa hammadan ko'proq Erdirga ta'sir qildi. Butun borlig'ini qamragan achchiq alamdanda butun umri bo'yi qutilolmadi.


Bahor keldi. Qirlar chamanlar bilan, daraxtlar chechaklar bilan bezandi.

Faqat Erdirlar uyining oldidagi quruq majnuntol jonlanib quvnamadi. Aksincha, battar qorayib xunuklashdi. Chunki endi uning ustidagi uya bo'm-bo'sh edi. Bu voqeadan so'ng, boshqa hech bir laylak kelib o'sha uyaga qo'nmadi.

DALA SICHQONI VA UY SICHQONLARI

Qiziq bir dala sichqoni bor edi. U bir kun uyasidan chiqib ketib, qishloqning xirmon uyulgan joyiga kirdi. Maqsadi odamlarni o'rganish edi. Buvisi insonlar yashaydigan joy juda qiziqarli bo'lishini aytgandi. Dala sichqoni odamlarni ko'rganda, juda qo'rqdi. Oyoqlar ostida ezilmaslik uchun aravaga ortilgan somonlarning orasiga tiqilib oldi. Bir dehqon somonlarni aravaga ortib qishloq yo'li oralab ketardi.

Dala sichqonining aravaga birinchi marta chiqishi edi. Bu sayohat unga xush yoqdi. U yo'lning oxirida nimalar bo'lishi mumkinligini o'ylamasdi ham... Qo'shiqlar aytib aravada kezishning mazaligini his etgisi kelardi uning. Qishloqqa borganda dehqon aravani somonxonaga bo'shatdi. Dala sichqoni burnidagi somon to'zlarini tozalagandan keyin atrofiga termulib qarab qo'ydi. Somonxona qorong'i va to'zib yotar edi. Hech yoqtirmadi bu yerni: "Tezgina uyimga qayta qolay. Oyim, dadam, aka-ukalarim qayoqda qolganimni o'ylab bezovta bo'lishayotgandir", - deya ko'nglidan o'tkazdi. So'ngra chiqish yo'lini topish uchun somonxonada aylana boshladi. Nima qilishni bilmay: "chiy,



tashlardi... Qozondan chiqqanlarini yana bir sovunlab ishqalar, zarur bo'lsa savag'ich bilan savar, so'ngra soyda chayib, baland-baland butalar ustida quritardi.

Hojarlar yo'qsil edilar. Ona, kir yuvish kuni uchun bor-yo'g'i bittagina sovun ololgan edi. Ustiga ustak cho'ntagida bir chaqa ham puli yo'q edi. Har lahza qo'lidagi sovun olqindisiga qarab qo'yar: "Yangi sovunmish bu, bir-ikki surtishda kichraya boshladi. Bunaqa bitta ishlatganda erib ketaversa! Erta-bir kun sovunsiz qolsam nima qilaman?",- deya tashvishlanardi. Bu orada o'girilib o'choqqa qaradi. O'tinlar yonib kichraygan, ko'mirlanib qoraya boshlagandi. Qozonning tagidagi olov so'nay-so'nay deb qolgandi. Darrov bir quchoq o'tin olib qozonning tagiga qaladi.

Yerga cho'kkalab o'tinlarni tutashtirish uchun olovga puflay boshladi. Bu asnoda kir yuvayotgan xotinlar zavq bilan bir qo'shiqni avj oldirishayotgan edi. Hojar boshqa bolalar bilan birga qo'shiqning havosiga berilib chapak chalardi. Birdan tepalarida yirik bir qarg'a paydo bo'ldi. Ko'z ochib yumguncha bu qush



pastlab, Hojarlarning kir toshiga qo'ndi. Va chetda turgan sovunni tumshug'i bilan ilib olib, bir nafasda havolandi.

Hammasi shu qadar tez va kutilmaganda sodir bo'ldiki... Hech kimsa o'g'ri qarg'aga qarshilik qilishga ulgurolmadi. Xotinlar va bolalar, qo'shiqni to'xtatib, shovqinlay boshladilar... Hojarning oyisi qo'lidagi o'tinni uchib ketayotgan qarg'aga otdi. Ayni chog'da u:

- Ikki ko'zing ko'r bo'lsin, bildingmi? O'g'ri qarg'a, izlab-izlab mening sovunimni topdingmi? - deya baqirib qarg'anar edi.

Hojar o'tirgan joyidan sakrab turib, qarg'a ketgan tomonga yugurdi. Boshqa bolalar ham qizning orqasidan chopdilar. Tumshug'idagi yuk og'ir bo'lgani uchun qarg'a pastlab uchayotgandi. Keyin u bir yerga qo'nib, yura ketdi... Bolalar qushni quvlab izma-iz kelishardi... Birozdan so'ng yo'llari tikonzorga duch keldi. Ularning hammalari yalangoyoq edilar. Boshqa bolalar kirishga botinmadilar. Hojar hech o'ylamay, tikonzorga kirib ketdi. Qiz ko'zini qarg'adan olmay, bor-yo'q kuchi bilan chopardi. Nima bo'lsa-bo'laversin, qarg'aning orqasidan qolmasdi.





Bolalarning hayqiriqlari tinishi bilan qarg'a, tahlika o'tdi, deb o'yladi. Qush yaxshigina charchagandi. Borib past bir nok daraxtiga qo'ndi. Hojar buni ko'rganda, egilib yerdan kattagina tosh oldi. Bor kuchi bilan qarg'aga pirillatdi. Tosh qarg'a qo'ngan shoxga tegdi. Qarg'a qo'rquv bilan "G'oooooq" deya hayqirganicha havolandi. Shu ondayoq og'zidagi sovun yerga tushdi. Hojar o'qday uchib daraxtning tagiga otildi. Va sovunni changalladi, qo'yniga tiqdi...

Qizning oyoqlarini, boldirlarini tikonlar tilib tashlagan, qichitqi o'tlar zaharlagan, chag'ir toshlar shilgan edi. Ammo u yig'lamasdi. Aksincha, yuzlari sevinch bilan to'la edi. Ammo boshqa yoqdan "Hojar... Hojaaaaar!" deya qichqirayotgan oyisining ovozi kelardi. Hojar bir zum qonayotgan oyoqlariga qaradi. So'ngra kuchini to'plab, yana tikonzorga qarab yugurdi. Suv yoqalab to'g'riga chopa boshladi. U hayajon bilan: "Oyiii! Oyiiiiii! Sovunni qaytarib oldim, kelyapman!" deb baqirardi...



Sichqonlar uyadan chiqolmay qoldilar. Ochlikka chidayolmagan sichqonlar uyaga qaytib kelmasdilar... Uy sichqonlari barcha voqealarning sababchisi dala sichqoni, deb bilib, u bilan gaplashmay qo'ygandilar.

Dala sichqoni ham tobora ochlikdan tirishib borar edi. Bir kecha hammasiga qo'l siltagancha surinib-surinib javonga chiqdi. Ohista pashshadan asrash uchun yonlari va qopqog'ining bir qismiga nozik to'r tortilgan oziq-ovqat shkafiga kirdi, qornini mechkaylarcha to'yg'azdi.

U qo'rquvni mutlaqo unutib, qaznoqqa qarab yo'l oldi, uning yana qoplarni kemirgisi kelardi... Birdan, yirik bir mushuk bilan uchrashib qoldi. Sichqon qo'rquvdan titrab, oldinga otildi. Bug'doy qoplarining orasiga kirib jonini qutgardi. Mushuk qaznoqdan ketguncha u yerdan chiqmadi. Mushuk ketar-ketmas sevinch bilan o'rtaga otildi, qorni yana bir nimalar talab qilardi. U jahd bilan yutqinib javonga yo'naldi. Shunda birdan "qars" etgan ovoz eshtildi.

Hamma yog'i og'rib, turgan yeriga yopishib qoldi. Uning dumi qopqonga ilingandi. Sichqoncha shu onda o'z uyasidan ketib, odamlarning orasiga kirganiga ming bora pushaymon bo'ldi. Javondagi yeguliklarga ham hushi yo'q



edi endi. U hayotidagi eng aziz narsasini, erkinligini yo'qotgandi. Ehtimol shu tutqunlikda o'lib ham ketar. Holbuki, uning juda-juda yashagisi kelardi.

Dalalar keldi xayoliga. Ko'z yetgancha uzanib ketgan, yugura-yugura o'ynaydigan ming bir qiyinchilik bilan qornini to'yg'azadigan dalalar...

Shu asno qopqonning ovozini eshitgan dehqon yotog'idan turib qiziqish bilan shosha-pisha qaznoqqa keldi. Sichqon azob va qo'rquvdan dir-dir titray boshladi. U butun hayoti davomida hech bir narsadan bunchalik qo'rqmagandi.

Qopqonga yaqinlashib kelgan dehqonni ko'rganda bor kuchini to'plab oldinga otildi. Dehqon uni qochirmoqchi emasdi. Shuning uchun oyog'i bilan sichqon sudrab ketayotgan qopqonni bosdi. Bu orada dala sichqoni tishini tishiga tirab, kuch bilan oldinga yana bir silkinib otildi... Va dumi uzilib qopqondan qutuldi. Og'riqdan ingray-ingray eshikdan tashqariga pirilladi. Tun qorong'ilig'ida dalalarga qarab ketdi.

Uy sichqonlari uni kun bo'yi kutdilar. Uyaga qaytmaganini ko'rib: "Dala sichqoni ham dehqonning qo'rqinchli tuzoqlaridan qutulolmadi. Boshqa chora yo'q. Bu yerdan chiqib boshqa bir uyga joylashaylik", - deya o'zlari tug'ilib o'sgan qadrdon uyalarini tashlab ketdilar.



VARRAK

Bahor kelgan paytlar. Qirlar moychechak, tizimgul, shirinmiya, gunafshalar bilan bezangan va tuproqdan gurkirab chiqqan yam-yashil o'tloqlar bilan qoplangandi. Ko'k yuzi moviy va charog'on edi. Katta-kichik va rangorang varraklar chiroyli dumlari bilan bu cheksiz moviylikda sollana-sollana tentirar edilar. Varraklarini ko'k yuzining kengliklariga solayotgan bolalar quvonchdan hushlaridan ketguday bo'lardilar.

Yusuf, Takin, Nuri va Kamol katta va ketvorgan bir varrak qilmoqchi edilar. Ularning to'rtovi ham yo'qsil bolalar edi. Varrak qilish uchun pul yig'a boshladilar.

Yetarli pul to'plashlari bilan darhol bozorga chiqdilar. Kerakli narsalar - shalldiroq qog'oz, qamish, shirach, bo'yoq, bir g'altak pishiq ip va hokazolarni sotib oldilar. Ertasi kun maktabdan qaytishda onalaridan ruxsat olib, hammasi Takinlarning uyiga yig'ildilar. Varrakni qilishga kirishdilar. Qamishlar o'lchanib bichildi. Bir-biriga ulandi. Kerakli iplar tortildi. Navbat qog'oz qoplashga kelganda,





Takinning onasi xonaga kirdi-da:

- Necha soatlardan beri shu varrak bilan ovorasizlar. Erta uchun uy vazifalari bordir. Endi bu ishni to'xtatinglar. Ozigina dars tayyorlanglar,- deya haydab soldi.

Chindan ham o'qituvchi ertagi kun uchun anchagina uy vazifasi bergandi. Bolalar istar-istamay fikrlarini jamlab olishga o'tirdilar. Ertasi kun yangidan topishishga kelishib, uy-uylariga tarqaldilar.

Oshnalari ketganda Takin, varrakning "qovurg'alarini" qo'liga oldi. Kesilgan qamishlarning uchlari orasidagi masofalarni yana bir bora o'lchab ko'rmoqchi bo'ldi. Onasi uning bu harakatini xushlamadi.

- Varrakni darrov joyiga qo'y-chi! Bir narsa qilib sindirib qo'ysang, do'stlaring sendan qattiq xafa bo'lishadi, - dedi.

Takin:

- Varrak faqat ularnikimi? Men ham pul qo'shganman,- deya yelkasini silkib qo'ydi.

Onasi:

- Pul qo'shding, ammo u baribir seniki hisoblanmaydi. Bu to'rtovingizning sheriklik molingizdir. Shuning uchun do'stlaringsiz varrakka qo'l

tekkizishing to'g'ri bo'lmaydi, - deya o'g'liga tanbeh berdi.

Takin bu achchiq gapni hazm qilolmadi, ammo onasini ranjitmaslik uchun varrakni devorga osib, dars qilgani o'tirdi.

Ertasi kun maktabda, tanaffus paytida, to'rtovlon boshni-boshga tirab nuqul varrakdan gaplashdilar. Ular har bir tanaffus qo'ng'irog'ini sabrsizlik bilan kutardilar. Oxirgi dars tugab, tanaffus qo'ng'irog'i chalinar-chalinmas ishtiyoq bilan ishni tugallashga yugurdilar. Varrakka qog'oz qoplash ishini Yusuf bilan Takin qilishardi. Nuri bilan Kamol dumni tayyorlashardi. Takinning onasi ham bolalarning ishtiyoqiga sherik bo'lgandi. Shu sababli ishini qo'ygan, ularga yordam berardi. Dum va dandirak iplari bolalarni ko'p ovora qildi. Varrak xuddi o'ylaganlariday bo'lgandi. Ikki yuzini qizil-oq qog'oz bilan qoplagandilar. Ustiga to'rtovlarining ham otlarining bosh harflari yopishtirilgandi. Dum naykamalak kabi rango-rang va ko'z oluvchi edi.

Ishlari bitganda, havoni bulut qoplayotgandi. Bolalar varrakni devorga osib qo'yib, uy-uylariga tarqaldilar.

Ertasi kun maktabdan chiqqach, Yusuf, Nuri va Kamol o'quv papkalarini qo'yib



kelish uchun uylariga jo'nadilar.

Zero, ular hali qirga borib varrak uchirishga onalaridan ruxsat so'rashlari kerak edi. Takin uyga kirar-kirmas to'g'ri varrak osilgan yerga bordi. Onasi uyda yo'q ekan. Varrakni uyning orqasidagi bog'da bir uchirib ko'rgisi keldi uning. Ichida:

- Do'stlarim kelganlarida varrakni osmonda ko'rib, kim biladi deysiz, rosa suyunib ketishsa kerak, - dedi o'zicha. Va darhol varrakka qo'lini uzatdi. Hayajon bilan zinalardan tushib, bog'eshikka yo'naldi.

Havo sarin shabadali edi. Takin: "Xuddi varrak havosi", - deya zavqlandi. Shabadaning yo'nalishini aniqlagandan keyin varrakni uchirishga mos joyga olib keldi. Chillakka o'ralgan ipni yechib, varrakni asta-asta silkiy boshladi. Bir necha odim yugurib to'xtar, ipni yana bir oz bo'shatib yangidan chopar, varrak bir necha marta yerga shox urdi, so'ngra havolandi.

Takin uni uchirishga qat'iy ahd qilgandi. Lekin varrakning negadir uchgisi kelmasdi. Ko'k yuzining so'ngsiz bo'shlig'idan qo'rqayotganga o'xshardi. Takin: "Uch, lochinim, uch! O'zingni qo'yvor. Kengliklarga qarab ochil, uch,

uch... Butun osmonlar seniki", - deya uni dadillashtirishga urinardi. Holbuki, bog' kichkina edi. Varrak shabadani to'la ololmasdi. Ustiga-ustak katta bir bodom daraxti bor edi bog'da...

Birpasdan keyin varrak daraxt bo'yi balandladi. Nima bo'lsa, mana shu paytda bo'ldi! Birdan teskari bir shamol esdi. Va varrak borib bodom daraxtining shoxiga ilindi. Takin qo'rquv va xavotir aralash ipni torta boshladi, ammo endi varrak daraxtga tamom ilinib qolgandi.

Aynan shu paytda eshik taqilladi. Takin yig'lamoqdan beri bo'lib, butun badani dir-dir titrardi. Nima qilishni bilmay esankirar, turgan yeriga qoqqan qoziqday qaqqayib qolgandi. Yusuf, Nuri va Kamol sabrsizlik bilan eshikni qattiq-qattiq mushtlardilar.

- Takin, Takin, och eshikni,- deya baravariga baqirishardi ular.

Takin eshikni ochdi, so'ngra darrov qaytib orqa boqqa qarab chopa ketdi.

Bolalar:

- Qayoqqa ketyapsan? - deya baqirishib uning ketidan ergashdilar va birpasda uchalasi ham bodom daraxtining shoxiga ilinib qolgan varrakni ko'rdilar... Varrakning chiroyli qog'ozlari yirtilgan, dumi gullagan bir shoxga o'ralashgandi.



- Eeee! - deya, bolalar g'azabga tushdilar. Shu payt Takin ularga qarab baqirdi:

- Nima bo'пти, meni kechiringlar. Uni daraxtdan chiqarib, tez tuzataman, - deya oldinga otildi. Va epchil harakatlar bilan bodom daraxtiga tirmasha boshladi. Takin varrakni olib tushganda do'stlari bog' eshikdan chiqib ketayotganlarini ko'rdi. Ammo ularga bir so'z deya olmay, uyat va pushaymonlik ichida ezilib orqalaridan qaragancha qolaverdi.

YOQUBNING ULOQCHASI

Yoqub bilan oyisi qishloqning chekkasida, kichik bir uyda yashardilar. Uyning atrofi bog'cha edi.

Yoqubning oyisi bu yerda mavsumiga qarab turli sabzavotlar ekardi. Ona-o'g'il bog'chada yetishgan mahsulotlarning bir qismini o'zlari yer, qolganini bozorga olib chiqib sotishardi. Shu tariqa ular birovga og'irligi tushmay kun kechirardilar. Yoqub qishloqlaridagi uch sinfli boshlang'ich maktabni bitirib, g'oz boqa boshlagandi. Ikkinchi tarafdin bog'cha ishlarida oyisiga yordam berardi.

Bir yoz kuni onasi bozorga sabzi sotishga ketib, qaytishda topgan puliga ikki kilo shaftoli sotib oldi.

Qishloq bozoriga shaftoli ahyon-ahyonda kelardi. Oqshom chog'i uyga qaytgan Yoqub shaftolilarni ko'rganda judayam sevindi. Bir o'tirishda ko'pini yeb bitirdi. Toti og'zida, hidi burnida qoldi. Og'zining atrofidagi shaftoli tuklarini artarkan:

- Oyi,- dedi,- bizning qishloqda shaftoli o'smaydimi?

- Yo'q,- deya bosh chayqadi onasi.

Yoqub:

- Nega? - dedi yana.



Onasi:

- Bilmadim, ekishga o'rganishmagan. Balki, bizning qishloqning havosi va suvi shaftoli yetishtirishga mos emasdir, - deb qo'ydi.

Yoqub qaysarlarcha yana savol berishini qo'ymadi:

- Nega endi mos bo'lmasin? Bir sinab ko'rish kerak.

Onasi:

- Bo'ladi, - deya bolasining gapiga ko'ndi.

Bahor kelganda, ona-o'g'il shaharga tushdilar. Qishloq xo'jalik idorasiga kirib, o'n tup shaftoli niholi sotib oldilar. O'sha kundan keyin ularning turmushlari o'zgardi. Ikkovlari ham go'yo avvalgidan shod va kuchliroq edilar. Yugur-yugur bilan borib-kelib ko'chatlarni sug'orishar, taglarini yumshatar, ustlariga qo'ngan qo'ng'izlarni, hatto pashsha va kapalaklarni ham quvishardi. Yoz o'rtalariga borib, nihollarining to'qqiz tupi bitta-bitta qurib qoldi. Bir tup ko'chatgina bamaylixotir ko'kardi.

Ona-o'g'il sevinchdan naq uchishardi.

Shu tariqa ikki yil o'tdi. Shaftoli ko'chati ulg'ayib gurkirab ketdi.

Bir bahor kuni ilk bora pushti-pushti





chechaklandi. Yoqub bilan ona o'sha kuni bayram qildilar. Chechak degani — meva degani. Va haqiqatan ham, bir muddat o'tar- o'tmas chechaklarning toj yaproqlari to'kildi. O'rtalarida yasmiqday-yasmiqday dovuchchalari ko'zga tashlandi. Yoqub hammasini sanadi. Yosh daraxtning shoxlarida roppa-rosa o'n besh dona shaftoli bor edi. Bu xabar, qishloq ichida og'izdan-og'izga o'tdi. Qiziquvchilar, azbaroyi qishloqning bir dona shaftoli daraxtini ko'rish uchun ishlarini qoldirib, Yoqublarning bog'chasiga kelishardi.

Bir kun Yoqub tegirmon etagida g'ozlarni boqib o'tirardi. Shomga yaqin yonbag'irning oralarida mitti bir uloqchanning alam bilan ma'rayotganini eshitdi. Oldiniga unchalik ahamiyat bermadi. Lekin uloqcha tinmas, to'xtovsiz ma'rar edi. Yoqub chuqurlikdan sakrab o'tib yonbag'irga tirmashdi. Va sambit changallari orasida, sutday oppoq uloqchaga duch keldi. Otilib uni quchog'iga oldi. Mehr bilan bag'riga bosdi. Qo'rquvini tarqatmoq uchun bo'ynini siypaladi. Uloqchanning jajji yonoqlarini va quloqlarini o'pdi.

Onasi o'g'lining quchog'idagi echki bolasini ko'rganda dastlab shoshib



qoldi:

- Bu uloqcha kimniki, o'g'lim?-
so'radi u.

- Topib oldim,- dedi Yoqub va bo'lgan
voqeani qisqacha aytib berdi.

Onasi:

- Suruvdan ajralib yo'lini yo'qotgani
aniq. Yonbag'irdan o'sha yerda:
"Cho'pon! Cho'pon!" - deya baqirsayding,
kelib olishardi uni. Mayli, zarari yo'q.
Ertaga topgan joyingga oborib...

Yoqub achchiqlanib onasining so'zini
kesdi:

- Obormayman. Uni men topdim, endi
meniki bo'ladi.

- Bunaqasi bo'lmaydi, o'g'lim!- dedi
onasi.- Bu uloq yerdan unib chiqqani
yo'q, ko'kdan tushmagan. Haqiqiy bir
egasi bor bechoraning. Seniki
bo'lolmaydi. Egalik qilib olsang-da,
harom bo'ladi u bizga.

Yoqub parvosizlik bilan yelkasini
silkidi:

- Nima bo'lsa bo'laversin. Uni hech
kinga bermayman.

- Bo'lmaydi,- dedi onasi.- Senga necha
martalab aytganman. Bir narsa topib
olsang, darhol egasini qidir. Egasi
chiqmasa, uni topgan joyingga qo'y...

- Bu boshqa, oyijon... Buni men olib
uyga keltirmasam, balki bo'ri yeb



ketardi. Nima bo'пти, aralashmang bu ishga. Parvarishlab o'stiraman buni.

Onasi o'g'lining bu gaplaridan jahllandi va:

- Uning har narsasi harom bizga. Hech bir narsasiga qo'limni tekkizmayman. Gunohi sening bo'yningga bo'lsin,- deya qattiq tanbeh berdi.

Yoqub:

- Men bu uloqchani yoqtirib goldim. Gunohiga roziman,-deb gapni kesib tashladi.

Yoz o'rtalariga borib, niholdagi shaftolilar yong'oqday-yong'oqday bo'ldi. Ustlari xol-xol pushtirangga chulg'andi. Yoqub goho-goho silab-hidlab qo'yardi ularni... Ba'zida og'zining suvi kelib: "Oh, tezroq pisha qolsaydi, shu shaftolilar!", - deb yutqinardi.

Kundan-kunga Yoqubning uloqchasi ham ulg'ayardi. Onasi: "Polizdagi sabzilarga zarar beradi",- deya uni og'ildan chiqarmasdi. Aslida uni odamlarga ko'rsatishdan uyalar, hatto Yoqubning qilgan bu nojoiz ishini qishloqliklar bir kunmas-bir kun bilib qolishadi, deya qo'rqardi.

Bir kuni ertalab ona qishloq bozoriga ko'katlar olib ketdi. Yoqub uloqchaga yem berib, o'zi g'oz boqishga ketdi.

O'sha kuni uyqusi tarqamagani bois,



mudroq bosib, og'ilxona eshigining surilma lo'kidonini mahkamlab surib qo'ymagandi. Uloq eshikni suzib, tirmasharkan, lo'kidon ochilib ketdi. Va uloqcha zavq bilan ma'ragancha, kun yorug'iga chiqdi. "Tapir-tupur" qilib sabzilar orasiga kirdi. Birpasdan keyin shaftoli ko'chatining yoniga bordi. Va darhol tirmashib ishtaha bilan qornini to'yg'azishga kirishdi.

Kechga yaqin Yoqub bilan onasi uyga qaytganlarida, uloqchalari shaftoli ko'chatining tagida yotganini ko'rdilar. Uloq niholning shoxlarini sindirgan, yosh barglari va mevalarini tamoman yeb bitirgandi. Bu ahvolni ko'rib ona-bola bir-birlariga allanechuk o'kinch ila tikilib qoldilar.

MUNDARIJA

Gultan Doyio'g'li haqida.....	3
Xayri gilos ko'chatini sevib qolgandi.....	6
O'g'ri qarg'a.....	19
Qora xolli qo'zi.....	25
Jahli yomon ayiqcha.....	31
Laylak qorda qoldi.....	42
Dala sichqoni va uy sichqonlari....	59
Varrak.....	67
Yoqubning uloqchasi.....	74